

Baxtiyor Omon

**BOBURNING
BOLALIGI**

(hikoyalar, esselar)

G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent—2002

8432

84 (5u)

Omon, Baxtiyor.

O-57 **Boburning bolaligi:** (Hikoyalar, esselar). - T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2002.- 104 b.

Yozuvchi va noshir Baxtiyor Omon «Yurak og'riqlari», «Umr daftari», «Siyosiy yetakchining notqlik mahorati», «Notiqning nufuzi» kitoblari, jahon adabiyoti zabardast namoyandalari Jek London, Lao She, Lev Tolstoydan o'girib chop etilgan tarjimalari orqali Sizga yaxshi tanish. Uning yangi kitobida boy o'tmish merosimizga, bugungi kunning eng muhim, qiziqarli, o'yga toldiradigan voqea-hodisalariga sinchkov nazar tashlanadi. Muhimi, yozuvchi o'zi ko'rgan, bilgan va ajib taassurot qoldingan mavzularni o'ziga xos badiiy bo'yoqlarda yoritishga harakat qiladi.

«Boburning bolaligi» hikoyalar va esselar kitobi Sizni o'ylashga va mushohada etishga chorlaydi, degan umiddamiz.

BBK 84(5Y)


Taqrizchilar: yozuvchi, Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti sovrindori **Mahkam Mahmudov**, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi **Latif Mahmudov**.

HO 29072
O

4702620201-14 grif 2002
M 352(04) - 2002

© Baxtiyor OMON
G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy
uyi, 2002 y.

ISBN 5-635-02138-7



*Onam Ra'no Ikrom qizining
qutlug' xotirasiga bag'ishladim.
Muallif*

HIKOYALAR

BOBURNING BOLALIGI

Yosh Zahiriddin kechagi xabarni eslab, o'zini behol sezdi. "Ajab dunyo ekan, — deya o'yga toldi u kichik mushtchalarini iyagiga tirarkan. — It-mushuk bo'lib yashamoqdan ne muddao? Madad berish o'miga qondoshlar bir-birining yuziga oyoq bossa-ya. Bu qiziq bo'ldi-ku?!"

Zahiriddinning bugun kayfiyati chog' emas edi. Saroy ahliga javob bo'lgach, ustozini qoshiga chorladi. Maqsadi ko'nglida yig'ilgan son-sanoqsiz jumboqlarning sir-sinoatidan voqif bo'lmoq. Odamizod hayotida qaltis, og'ir soniyalarda dono maslahatgo'yga tashna bo'ladi. Mavlono Xoja Abdullo podshozodaning yaqin maslahatgo'yi, suyanchig'i. Ancha vaqt Umarshayx xizmatida bo'lgan bu kishi tanti va mard, uning xolisona fikrlarini o'ziga bajonidil qabul qiladi.

— Mavlono, amakimning murodi sizga ayonmu? — ancha sukutdan so'ng so'zladi Zahiriddin.

— Ha, bo'tam, — dilini ochdi Mavlono. — Ahmad Mirzoga qarashim andak boshqa edi. Na iloj... — ustozning mushtlari g'azabdan tugildi. — Shohlarning niyati yaxshilik urug'ini sochmoqlik emas ekan?

— Yaxshilikni juda-juda istardim, ustoz.

— Sizning murg'ak qalbingiz hali toptalmagan, toza. Ammo g'animlaringiz orzularingizni toptashsachi? Harqalay, jim turmassiz?

— Alarga zarba berurman!

— Borakallo, azamat. Ammo shuning o'zi qon to'kmoqlik emasmu? Ha, podshohlik dunyodagi eng mushkul ish. Siz bo'lsangiz endigina o'n ikkiga qadam qo'ydingiz. Eh, ertangi janggu-jadalda minglab navkarlarimizning yostig'i quriydi. Onalar, begunoh norasidalarining sizni ham qarg'ashlarini, dod-faryod chekishlarini ko'z oidingizga keltirasizmu, o'g'lim? Kecniring, meni.

— Ustoz, ne qilmog'im darkor? Ayting!

— Amakingizning shum niyati — himoyangizdagi jannatmakon yerlarni ilgiga olmoq. Siz uni mag'lub etmog'ingiz lozim. Otangizning uzoq yillik zahmatlarini ko'kka sovurmasin. Piri komil madadkor bo'lgay, sizga.

— Menga ishonung.

— Ishonaman, o'g'lim. Endi menga ruxsat. Aytganday, jangdan oldin Eson Davlatbegim oldidan o'ting. Momongizning duolari qilichdan-da keskir bo'lg'ay.

Mavlono Xoja Abdulloh ta'zim bajo aylab, chiqib ketgach, Zahiriddin allamahalgacha uxlamadi. Ustozning achchiq, lekin haq gaplari uning xayolini chulg'agandi. "Shohlar yaxshilik urug'ini sepmaydi!" Nahotki, umrining oxiriga qadar yaxshilik qilmoq qo'lidan kelmasa?!

Ikki kundirki, Eson Davlatbegim halovatini yo'qotgan. Uning vujudi zirqirab og'rir, ichida shum

Ahmad Mirzoga la'natlar o'qirdi. Chor girdida xonliklar tish qayrayotganda kuchi jiyani Zahiriddinga yetibdi-da. Ona suti og'zidan ketmagan norasidaga qo'l ko'tarishning oqibati yaxshi bo'lmaydi.

Xona eshigi tuyqusdan ochilib, ostonada shohona libosda Zahiriddin chaqnoq ko'zlarini unga qadab turardi.

— Keling, sizni o'ylayotgandim.

— Ulug' ona, fотиha bering!

Eson Davlatbegim nabirasining yuz-ko'zi, bo'yinlaridan o'pdi. Ko'z oldida kechagina bolakaylarga qo'shib yurgan navnihol o'smir emas, ajabtovur yigitcha turardi.

— O'g'lim, siz tap tortmang. Ahmad Mirzoni xudo uradi. Eshitdingizmi? Ko'nglim sezib turibdi. Iloyim, boshingiz toshdan bo'lsin, g'olib qayting, bolam. — Ulug' ona fotihaga qo'l ochdi. Lablari allanimalarni pichirladi-da, yuziga qo'lini tortdi.

— Zahiriddin, emdi mening nasihatlarimni tinglang: o'g'lim, meni kechayu-kunduz kelajagingiz o'ylantiradi. Jirkanch zotlar sizni xarob qilmasin, deb qo'rqamen. Mavlonoga quloq solingiz, bolam. U xolis, tadbirkor odam. Oramizda birtalay g'animler bor. Jangdan eson-omon chiqing, bu haqda bafurja gaplashamiz. Uzoq o'ylab ish ko'rishingizga to'g'ri keladi. Oq yo'l, bolaginam!..

Kutilgan o'sha mudhish kun ham keldi. Farg'ona muzofoti osmonida qora bulutlar keza boshladi. Qushlar galasi dahshatni sezganday falakni tark etdi. Oradan sal vaqt o'tmay, atrofni hayyo-huyt, ur-sur sadolari qopladi. Zahiriddin yo'l ustida turar ekan, Ulug' ona

va ustozlari o'g'itlarini bot-bot eslardi. Yosh shoh tomirida g'oliblik zavqi jo'sh urardi. Ahmad Mirzoning esa qo'li baland edi. Zahiriddin bunday dahshatga tushmasa-da, bolalik xayollari ila tuproqqa qorishib yotgan son-sanoqsiz murdalar dahshati bilan band edi. Uning ko'ngli buzildi. "Bas qilinglar, — hayqirdi shahanshoh. — Bas!" Biroq u kechikkan, lashkarlarning ko'zi qonga to'lgan, endi qo'shinni kutilayotgan xavf-xatardan asramoq chorasini topmoq lozim edi.

Adolat hamisha ezgulik tomonda bo'lib kelgan. Tengsiz maxorobada baxt Zahiriddinga kulib boqdi. Qubo¹ ko'prigi yonidagi botqoqlikdan o'tishda Ahmad Mirzoning yigitlari falokatga duchor bo'lishdi. Och-nahor ko'zlarni botqoqlik o'z qa'riga oldi. Ko'za kunda emas, kunida sinadi deganlari shu-da. Otlar, tuyalar, behisob askarlar botqoqlikka guppa-guppa ag'anadi. Ahmad Mirzo rejasi bir zumda sarobga aylandi. «Voh, sharmandalik-e?!» deya bo'kirdi u. Qolgan-qutgan lashkar jonlarini o'ylab qolishdi. Boshi egik Ahmad Mirzo sharmandali sulhga qonli barmog'ini bosib, ortiga ravona bo'ldi. «Go'dakka qo'l ko'targan kishining boshiga qora kun tushgusidir». Azaliy qismatdan qochib qutulib bo'ladimi? Zahiriddin bu zafardan ko'ngli joyiga tushgach, Ulug'ona huzuriga yugurdi.

— Shahanshoh bolaginam! — deya quchog'ini ochdi Eson Davlatbegim. — Sizni chin dildan muborakbod etamen. Buyuk, olijanob voqea bo'ldi. Xudo sizdan marhamatini darig' tutmadi. Otangiz arvohi shod bo'ldi.

¹Qubo - Quva

Zahiriddin momosi oldida ancha qolib ketdi. Yigitcha Ulug' onaning mehr to'la ko'zlariga tikilarkan, negadir jangda shahid bo'lgan qurbonlar va o'lim haqida o'ylay ketdi. "Odam borki, yaxshimi, yomonmi, baribir o'ladi, — miyasiga kelgan noxush fikrdan seskandi Zahiriddin. — Qiziq, yaxshilar nega o'limni chetlab o'tishmaydi-ya? Ro'paramda tasbeh o'girib o'tirgan momojonim ham kunlar kelib hayot bilan vidolashadi".

Zahiriddin momosining o'limini ko'z oldiga keltirdiyu, hayajonga to'la ko'zlari yoshga to'ldi. Tomog'iga nimadir qadaldi.

— Momojon, si-iz-z ko'p yashang, xo'p-mi, — dediyu qo'llarini momosining yelkasiga qo'yib, yig'lashga tushdi.

— Yig'layapsizmi, bahodirim. Nima bo'ldi, sizga? Momongiz hali ko'p yashaydi. Sizdek shahanshohim — ulkan tog'im bor ekan, yashayman, bolaginam.

— Aldamayapsizmi, momojon? — Zahiriddin qizargan ko'zlarini yengining bari bilan artdi. Bolakayning qiyofasi jiddiy tus oldi: — Aying-chi, momojon — kechagi qurbonlar uchun men javobgarmanmi? Ularni orziqib kutgan birodarlari meni qarg'ashadimi?

— Sizni nega qarg'ashadi, bolam. Har kim qilmishi uchun javob beradi. Siz xalqni yov bosqinidan himoya qildingiz. Gunohingizdan ko'ra savobingiz ko'pdur, bolam.

— Minnatdormen, momojon!

Zahiriddin shasht bilan o'rnidan turdi.

— Siz hayot ekansiz, ruhingizni cho'ktirmaymen aslo. Yonimda bo'lsangiz bas, haqqimni berib qo'ymasmen.

— O'g'lim, katta g'animni yengdingiz. Qadamingiz qutlug'dir, demakki... Atrofingizda qora sharpalar bor ekan, hushyor bo'ling, shonu shavkat, boylik yo'lida bul kimsalar hech narsadan tap tortmaydilar.

Darvoqe, saroy davrasida yosh shahanshohning g'animlari bor edi. Toj kiyish marosimidan so'ng bu narsa yaqqol bilindi.

Eshik og'asi Hasan Ya'qub saroyda uzoq yillik xizmatlari evaziga yuqoriroq martabani istar, mushtday bolakayning amri farmon berishi ta'biga sira yoqmasdi. Hasadning uchqunlari bor edi-da. Ularning niyati yomon: sarosimada yosh shahanshoh joniga qasd qilish edi. "Yo rahnamosi Xoja Abdullohni, yoinki ona suti og'zidan ketmagan tirmizakning boshini tanasidan judo qilurman!" — deya ichida qasd qilib yurardi Hasan Ya'qub.

Zahiriddin g'aroyib tush ko'rdi. Bir zumda charog'onlik o'rnini zulmat tun egallaganmish. Ajabo, bu ne hol? Had-hisobsiz orzulari qayda qoldi endi?.. Uning sirli hodisadan aqli shoshib, ustoz huzuriga chopibdi. Chor-atrof zulmat izmida. Bahaybat daraxtlaru bir-biriga chirmashgan devorlar, olomonga to'la maydon, gashtak bog'lar o'rnini qorong'ulikka bo'shatgan.

Sovuq shamolning uvullashi, olashaqshaqning shaqqillashi quloqqa yoqmas, ko'chalarda, tor yo'laklarda yakkam-dukkam odamlarning sharpasi eshitilar, ular sirli, ohista qadam tashlashardi. "Hali oqshom cho'kkani yo'q edi-ku? Bu ne savdo bo'ldi?"

Uning diqqatini bir manzara o'ziga tortdi. Shahardagi bozor o'rtasida to'p-to'p odamlar gulxan atrofida hech narsa bo'lmaganday chordona qurib, suhbat aylashardi. Mash'alalarning sanog'i yo'q. Mana, ulardan birining yaqiniga keldi. «Oh, bu g'animi Hasan Ya'qub-ku?» U paytdan foydalanib, fitna maslahatini qilardi.

Zahiriddin sarmast holatda uzoq-uzoq yurdi va nihoyat, ustoz go'shasiga kirib bordi. Afsus... ustoz o'rnida yo'q edi. U falakiyot siri va jodu ko'zlar sehridan ogoh bo'lgach, boshi qotib, saroyga yo'l oldi. Ortiga qaytar ekan, mash'alalar endi uni ta'qib qilar, tobora unga yaqinlashardi...

Cho'chib uyg'onganida qorong'ulik bag'rini xira chiroq shu'lasini elas-elas yoritib turardi. U shoshilgancha ichki kiyimda tashqariga otildi. Tun chodrasini yorib, oppoq tong oqara boshlagan palla ekan. «Xayriyat, tushim ekan, — deb qo'ydi Zahiriddin hayajonini bosmoqchi bo'lib. — G'alati tush, ajab voqea...»

Sokinlik qo'ynida xayollarini yig'moqqa urindi. O'y-orzularining adog'i benihoya. Sayroqi qushlarning olislardan kelayotgan ovozi xayollar daryosini to'lqinlantirib yubordi.

Ko'zi osmonga qadaldi. Oy yarimta edi. “Nechun? Ulug'ona oy yaqin kunlarda to'lishadi, demaganmidi? Bu nedan dalolat?! Kechayam, oldingi oqshom kuzatganida-da shundoq turgandi, chog'i?”

O'zicha nimalarnidir pichirlaganicha ichkariladi. Momosining barvaqt uyg'onishini bilardi. Nonushta mahali salom-alik qilishardi. U odatini buzib, momosi turgan xona tomon burildi.

— Assalomu alaykum, momojon.

— Va-alaykum assalom. Keling, bolam. Ha, erta uygʻonibsiz?

— Oʻzim...

— Fikr tugʻildimi-a? Aytganday, qaysi kungi sheʻringizni oxiriga yetkazdingizmu?.. Barakallo! Sizdan umidim katta. Siz ... — dedi-yu, birdan momosining koʻzlaridan duv-duv yosh toʻkildi. — Otangiz, sizga koʻproq ixlos qoʻygandilar. Oʻlimidan oldin ham sizni tarbiyamga olishimni tayinlagan. Inonganimiz siz, siz bolaginam.

Taqdir oʻyinlarini qarang. Qaysiki safar jangdagi gʻalaba oldidan momo-nabira uchrashganlarida yosh Zahiriddin hayajondan entikib, bot-bot koʻz yoshi qilgandi. Endi boʻlsa, Boburiyzodalarning ulugʻi — Eson Davlatbegim oʻzini tutolmay yigʻlamoqda.

— Qoʻying, momo, yigʻlamangiz? Kerak emas!

— Eh, suyukli nabiraginam, — ancha sukutdan soʻng boshini koʻtardi Eson Davlatbegim. — Toʻpimizda mehr-oqibat yoʻqolib borayotganligidan oʻksinamen. Yor-doʻstlar, yaqin qarindoshlar shunday qilgach... Amakingiz Ahmad Mirzoning qilgʻiligʻini koʻrdingizmu? Afsus, afsus, aqliga suf-e. Yosh norasidaning qanotini sindiraman deydi-ya. Navnihol bolaning pokiza, sof yuragini keskir qilich bilan zabt etib boʻlarkanmi?

— Momojon, meni tinglang!

— Xoʻsh, yengilmas bahodirim.

— Ajab tush koʻrdim. Taʻbirini bilmoqqa juda oshiqamen.

Zahiriddin shosha-pisha koʻrgan tushi tafsilotini aytib berdi.

— Ha, o'g'lim, yomon tush ko'ribsiz, — momo yonida o'tirgan navqiron nabirasiga rostini aytishga jazm etdi. — Sarosimali kunlar yaqinga o'xshaydi. Ko'nglim bezovta, bolam. Siz bulardan cho'chimang.

Eson Davlatbegim Bobur Mirzoga taskin berarkan, “nabiraginamning boshiga yetishmasaydi”, degan fikr lop etib miyasiga keldi. «Yov oramizdan chiqadi, bu aniq. O'zini tiklagunga qadar qo'yib berishsa mayliydi-ya. Kelajakda Zahiriddinim, albatta, ulug' odam bo'lib yetishadi! Bunga imoni komil».

Shu suhbatdan ko'p o'tmay falokat yuz berdi. Bobur eng yaqin kishisi, maslahatgo'yidan ajraldi. Xoja Abdullohni o'ldirishdi. Tushida ko'rgani — o'sha gulxan atrofida uymalashib yurgan jirkanch basharali pismiq kimsalar, chirkin Hasan Ya'qubning qo'li bor edi bunda. Bu — xiyonatning boshlanishi edi. Muzofotda to's-to'polon, qon to'kish, ur-surlar tobora avjiga minardi...

Yosh Zahiriddin hasad va xiyonat ko'plarining tinchini buzganligini angladi, ijirg'andi. “Oh, dunyo! Kaltabinliklarning oxiri bormikan. Nahot, biz katta g'anim oldida bir-birimizning etimizni yeb o'tirsak...» U ulug' orzular og'ushiga cho'mgan boshiga hatto o'zi kafillik bera olmasligini anglab, ajib bir qarorga keldi: “Bas, o'n bir yillik tahlikalar jonimga tegdi, — dedi o'ziga. — Bosh olib chiqib ketamen. O'zimni katta maydonda sinab ko'rurmen. Yo ostidan, yo ustidan!”

Bobur Mirzo katta yo'lga o'tlanarkan, oxirgi marotaba Ulug' ona qoshiga kirdi. Eson Davlatbegim mard, tanti

nabirasini uzoq tingladi, mushohada qildi, oxiri noiloj, taklifiga rozilik bildirdi.

— Bahodirim, sizga ne deyin. Niyatingiz qat'iy ekan, ilojim qancha. Bular sizni nobud qilishlaridan qo'rqurmen. Bu makondan uzoqlashmog'ingiz to'g'ri bo'lur. Rozimen, bolam. Iloyim shonu shavkatingiz olamga yoyilsin. Xudo qo'llasin, katta bobongiz — Temur ruhi madadkoringiz bo'lsin.

Eson Davlatbegim nabirasiga oq fotiha berdi. U na-da yig'lar, na-da shodlanar, yuragi allaqanday hapriqib, oqizoqday bo'lib qolgan edi.

... Bobur Mirzo shom qorong'usida o'ziga yaqin yigitlari bilan uzoq, juda uzoq safarga yo'l oldi.

1983-yil 10-mart.

AROSAT

— Jo'rabek, tur, bolam, poda ketib qoladi. Hali otangdan dakki eshitasan?

Tong g'ira-shirasida onasining tovushidan cho'chib uyg'ongan bolakay: «Voy, essiz — tushimning oxirini yo'qotdingiz», dedi ko'zini ishqalab.!

U apil-tapil shimini kiyib, tomorqa orqasidagi ariqcha tomonga yugurdi. Suvni shaloplatib yuvinarkan, boyagi tushini esladi. Kechki ovqatdan so'ng kundalik daftarini quchoqlab, otasi uning yoniga kelganmish. “Ha, o'g'lim, nima gap?”. U dadasiga debdi: “Imzo cheksangiz”. Dadasi qovog'ini uygancha, uni savolga ko'mib tashlarmish. Jo'rabek shoshilmay dona-dona

javob qaytaribdi. “Balli o‘g‘lim, aqling butun. Aytchi, kelajakda kim bo‘lmoqchisan?”. U debdi: “Bahridin akaga o‘xshagan...”

Dadasi o‘rnidan sakrab turibdi. “Hali san o‘qituvchi bo‘lmoqchimisan, nonyemas!” deya baqirsa, oyijoni xonaga yugurib kelibmish.

“Yomonmi pedagoglik?” dermish onasi. “O‘rgildim, muallimlikdan. Umri azobda o‘tadi, o‘g‘lingning. Bo‘lmaydi”, deya qayirib tashlarmish. “Bo‘ladi...” Qarangki, otasi bilan onasi o‘rtasida janjal boshlanibdi. Jo‘rabek payt poylab qochib qolibmish.

Jo‘rabekning kuydi-pishdiligidining sababi — bayram yaqin qolgan edi. Odil aka bayramlarda o‘g‘lini xursand qilardi. U bu safar o‘g‘lini shaharga oborishga so‘z bergandi. Mana, yozgi ta‘tilga ham chiqib olishdi. Kunlar xira, mazmunsiz o‘tardi. Shu kungacha Nurota chashmasi biqinidagi Obi-chappa¹ anhorida necha marotaba sho‘ng‘ib chiqqanini eslolmaydi. Sho‘ng‘iyverib quloqlari shang‘i bo‘lib qoldi. Otasidan ikki marta dakki ham yedi. Koptok tepish esa allaqachon joniga tekkan. Sinfdoshi erkatoy Mavludalarning jo‘xorisiga tushgan koptokni izlayverib charchadi. Koptokni topib chiqqan kuni ro‘parasidan sinfdoshi Mavluda chiqib qolsa bo‘ladimi?! “Men sizni bunday o‘ylamagan edim, — bidillay ketdi u. — A‘lochi, jamoatchi bo‘la turib... O‘yinqaroqlikning ham chegarasi bor. Jo‘xorizor payhon bo‘lib ketdi-ku?”

Jo‘rabek bu gaplarni eshitib, uyaldi va rosti ijirg‘andi. Mavludani kamgap, odobli qiz deb yurardi. «Vo-ho, ichida gapi ko‘p ekan-ku?!» U indamadi, shartta

¹ Chashma suvi

o'girildi, ko'chaga qarab yugurdi. Joy torligi bois, rosti, futbol o'yinining ham qizig'i qolmadi hisob. Buning ustiga, o'yinda g'irromlik ko'paydi, shunda Jo'rabek chiday olmay, jimgina o'yindan chiqib ketadigan bo'ldi.

Shaharda Jo'rabekning tog'asi yashaydi. U doimo galstuk taqib yuradi: olim, bilimdon kishi. Dang'illama hovlida turishadi. Otasining aytishicha, u qishloqdagi "birodar"larining o'g'il-qizlarini o'qishga joylarmish.

Jo'rabek bolaligida shaharga borganini esladi. O'shanda otasi, oyisi, Nargiz singlisi borishgandi. U tog'asining o'g'li Behzod va uning o'rtoqlari bilan zooparkka kirganida allanechuk holatga tushib, hayvonlarning otini adashtiravergan. Ovchi it bilan bo'rini ajratolmagan. Shaharlik bolalar uni rosa kalaka qilishgan o'shanda. Shu-shu u ko'proq shaharni o'ylaydigan bo'lib qoldi. Oyisi shipshiganidan beri, haligi borgani esiga tushib, battar qiziqishi ortdi. Qishloqlaridagi tengqurlaridan hech kim hali shaharga bormagan edi-da. Shahar deganda chiroyli kiyingan odamlar, ko'rkam binolar ko'z oldiga keladi. Qiyomat joy! Jo'rabek miyig'ida kulib qo'ydi: yaqin kunlarda boradi! O'shanda shahardan qaytganida, turgan gapki, o'rtoqlari uni savolga ko'mib tashlashadi.

— Shahar yoqdimi, Jo'ra? Bolalari soddami yoki bizni aldab ketarmikan? Koptok tepishi qanday? Soch qo'yisharmikan? Qizlarining qarashi-chi?..

Odil aka haydovchi edi. Birovlardan kam joyi bo'lmasa-da, lekin ko'p ichardi. Baribir otasini

ko'pchilik hurmat qilishini Jo'rabek yaxshi bilardi. Otasi qo'rzoqlardan emas edi-da. Shartaki, dangal. «Nega u hech kimdan hayiqmaydi?» — o'ylardi bolakay, biroq savoliga javob topilavermasdi.

Oilada Odil akaning obro'yi haminqadar. Ko'chada kimlardir unga ta'zim qilsa, uyda... Mana, bugun ham shunday bo'ldi.

Ertalab dasturxon atrofida oila jamuljam edi. Sukunatni Odil aka buzdi.

— Jo'rabek,¹ shirchoy tayyorla, xo'pmi?

— Sut yo'q-ku, dadasi. Hamsoyalardan olib, kecha shirguruchga ishlatdim. Yemadingiz.

— Ishtaha bo'g'ilganda ovqatga balo bormi?

— He, shu arog'ingiz jonimga... — deya Rohat opa hiqillashga tushdi.

— Bas qil! — o'shqirdi Odil aka. — Senga shunday gaplar bo'lsa, huzur qilasan. Ichsam o'zimga!

— Siz o'zingizni o'ylaysiz. O'g'lingizga bir qarang?! Tuzuk engil-boshi yo'q. “Besh” bahoga o'qiydi-ya. Nargizani qo'ya turing, qiz bola.

— “Besh” bahoga o'qiydi! Bilaman, hali bu holva. Mani fikrim: hamma gap odamlardan haqini ajratib olishida. Bahoni esa... sotib olish mumkin!

— Qanday qilib, ota? — hayron bo'lganicha suhbatga aralashdi Jo'rabek.

— O'g'lim, g'o'rsan-da. Dunyo ko'zingga g'oyat go'zal ko'rinadi. «Mohitobon, oromijon» degan qo'shiqda aytilganidek. Aslida-chi? Xay, tur, o'rtoqlaring qarab qoldi.

¹ Zarafshon vohasida oila boshlig'i rafiqasini asosan to'ng'ich farzand ismi bilan chaqiradi

Jo‘rabekni ko‘chada kutib turgan jo‘ralari uni ko‘rib quvonchdan baqira ketishdi. Negaki, u halol, chiroyli o‘yin ko‘rsatardi. O‘zidan bir sinf yuqorida — 7 “b” da o‘qiydigan Ne‘mat bilan birga maydonga tushardi. Sepkil yuzli, miqtigina, sariqqa moyil bu bola “chap berish”da ustasi farang edi. O‘yin gashti o‘zgacha, buni har bir kishi bolalikda boshidan kechirgan, huzurbaxsh soniyalar! Yutishganlarida raqib tomonning jirillashini eslaysizmi?! Sal-pal ortiqcha gap aytilsa, bechoralar yig‘lashga tushib “Golimizni beringlar” deyishardi. Gap shuki, o‘yinni davom ettirish kerak bo‘lardi. Ammo bugungi o‘yinda ham Ne‘mat «o‘rtoqlar, uzr, uyda ozgina ishim bor edi», deya «chap» berdi-yu, g‘ir etib g‘oyib bo‘ldi-qoldi. Jamoalar bahsni ancha davom ettirib, oxiri murosaga kelishdi: “Mayli, o‘ynaymiz, jo‘ralar. Nimamizni yutqizardik”. Shu zayl o‘yinga tushib ketishdilarki, qorong‘i tushib, koptok ko‘rinmay qoldi. Shu payt kimnidir uyga chaqirib qolishdi. Yosh futbolchilar noiloj tarqalishdi. Har kuni ahvol shu. Bu bir xillik va asabiy o‘yinlar Jo‘rabekning me‘dasiga allaqachon tekkan edi.

O‘sha kungi mojarodan so‘ng Odil aka xotiniining ta‘nalariga chiday olmay, sigir sotib oldi. Yonida mallagina buzoqchasi ham bor. Rohat opaga jon kirdi, sut-qaymoqdan yolchidi. Endi Odil aka shirchoyga to‘yib ishga ketaveradi.


Sigirga Rohat opa va Jo‘rabek qaraydi. Bola uni podaga qo‘shar va namozshomda ko‘cha boshiga chiqib kutib olardi. U buzoqchani onasi oldidagi erkalanishlarini

kuzatarkan, o'yg'a tolardi. "Mehr degani shumikan-a? Qarang, bir-biridan ajratish qanchalik og'ir".

Bir kuni baxtsiz hodisa yuz berdi. Yoz oyi, havo issiq, dim edi. Birdan osmonni bulut qoplab, yomg'ir quydi. Yoz yomg'iridan Nurotaning katta soylari suvga to'lib-toshdi. Bu — sel kelishidan nishona edi. Jo'rabeklarning qishlog'i panada, sel yetib kelolmaydi. Burnog'i yili hashar yo'li bilan yirik to'sinlar qo'yishgan. «Sel deganlari bolalarni beshigi bilan sudrab ketaveradi», degan gapni eshitganidan Jo'rabek qo'rquvga tushadi. U bugun o'sha fojiani sezayotgandek edi. Axir, yaylovda qolgan jonivorlar taqdiri ne kechadi?

Jo'rabek o'tni oxurga tashlab, ko'cha boshiga chiqqanida daladan poda qaytar, bolalar qiy-chuv solib ko'chani boshiga ko'tarar, mayin yomg'ir yog'ardi. Ko'ylak-ishtonlariga nam tekkaniga qaramay, bolajonlar jonivorlarni kutishardi. Hov, masjid oldidagi supachada, pana joyda ulfatlar shaxmat surishyapti. Yomg'ir yog'yaptimi, do'Imi, parvoyi falak. Ayvondagi to'rqovoqlardagi bedanalar kim o'zarga xonish qiladi.

Yomg'ir ko'pchilikni sarosimaga soldi. Bu gal podani kutib olgani olomon ko'chaga chiqdi. Jo'rabek ham o'rtoqlari bilan dala boshigacha bordi. Jo'ralari Ne'mat, Anvar, Akmal tezda qishloqqa qaytishdi. Uning sigiri esa qaytmadi. Jo'rabek hayajon ichra uyiga chopdi. Oyisi avvaliga o'g'lining gaplariga ishonmadi. «Topolmagan-da», deb o'yladi. Keyin biroz o'ziga taskin berdi: «Keladi, qayerga ham boradi». Vaqt o'tib borar, otasidan esa darak yo'q. "Butunlay kelmay qolsa-ya", deya vahimaga tushdi Jo'rabek. Yo'q, unda



hollari nima kechadi? Yana janjal bo'ladimi? Sut izlab, qo'shninikiga chiqadimi?"

Shu vaqt ko'cha tomondan mashinaning ovozi eshitildi: otasi keldi. Jo'rabekning ichida chiroq yorishgandek bo'ldi. Dadasining qo'lidan hamma ish kelishiga u ishonadi.

Odil aka kabinadan tushib, avtobusning u yoq-bu yog'ini ko'zdan kechirgach, hovliga gandraklab kirdi. Yaqinda avtobusga amallab o'tdi-yu, ko'p ichadigan bo'ldi. Bola buni otasining cho'ntagidagi hisobsiz g'ijimlangan pullardan, deb o'ylardi. Puli ko'pning jo'rasi ko'p, deyishadi.

— Haytovur, yaxshi keldingizmi, Jo'rabek, — deya obdastani suvga to'latib, Rohat opa eriga peshvoz chiqdi.

— Bormisan o'zi? — do'q qildi Odil aka. — Nima tayyorlayapsan? Palov qilsang bo'lmasmidi?

— Qaydam...

— Dadajon, sigirimiz yo'qoldi! — Jo'rabek shunday dediyu, ortiq chidolmay yig'lashga tushdi. — Podadan qaytmadi...

Odil akaning avzoyi buzildi. O'ylashga fursat qolmagan edi. U darhol kiyimlarini almashtirib ko'chaga chiqdi. Ota-bola podachining uyiga o'tishdi. Tog'dan qaytmagan ekan. Tutzorni qidirishdi. Yo'q, topisholmadi. So'ng qishloqdan tepalik tomon ketishdi. Yo'llar loy, sirpanchiq, yurish qiyin. Bola ikki-uch marotaba sirpanib yiqildi. Oyoqlari qotib, uvishdi. Uning miyasida bir savol charx urardi. «Buzoqcha nima bo'ladi?» Odil aka o'g'lining jonivorga achinayotganini sezar, biroq ilojisiz edi.

— O'g'lim, o'zingni qiynama, — dedi anchadan keyin toqati-toq bo'lib. — Topilmasa dardi balo. Odamdan ham qimmat ekanmi, o'g'lim. O'rniga boshqasini olamiz. Uyga qaytamiz. Nima deding?

Jo'rabek indamadi. Shu paytda otasining gaplari qulog'iga kirmadi ham. Bolaning xayollari birdan chuvalashib ketdi. U bir nafas entikib oldi-da, qadamini tezlatdi. Odil akaning boyagi mastligidan asar qolmagan, ichida u kimnidir bo'ralab so'kardi. Xo'jalikning beda ekilgan maydoni bor, yo'l-yo'lakay o'sha yoqqa o'tishdi. Borishsa, bir talay sigirlar o'tlab yuribdi. «Seldan qo'rqib, jonholatda orqaga qochishibdi-da». Jo'rabek sigirini darhol tanidi. «Mana, mana u. Voy bechora-ey», deya hayajonini yashirolmay, sevinchidan baqira ketdi. Otasi g'uldiragancha sigir bo'yniga arqon solarkan: «Ha, yashshamagur, odamning jonini olding-a», — dedi. — Afsuski, odam emassan-da».

... Ertasi Jo'rabekning mazasi qochdi, isitmasi ko'tarildi. Otasi ishga jo'nadi. Yo'lovchilar kutib turishmaydi-ku. Oyisi, singlisi Nargiza esa Jo'rabekning oldidan jilishmadi. U damba-dam alahsirar, sigirni so'rardi. «Ha, bolam, tashvish tortma, buzoqchasini emizib yotibdi. Mana, sutini pishirib keldim. Ich, bolam», dedi onasi unga dalda berib.

Jo'rabek shu alfozda ancha yotib qoldi. Har kuni uni ko'rgani o'rtoqlari kelishardi. Kecha Ne'mat keldi.

— Yaxshimisan, Jo'ra... Seni yo'qliging bilinyaptida, — dedi u kuyinib, — o'yinlarda yutqazyapmiz. Lekin maydonni tashlab ketish yo'q endi, jo'ra...

— Qoyilman, — xursand bo‘ldi Jo‘rabek. — Baribir, sen halol o‘ynashing kerak. Bo‘lmasa, ulg‘ayganimizda yuzimizga solib yurishadi...

Ikki o‘rtoq bir zum o‘tirib, kelajak haqida yaxshi orzular qilishdi. Bolalik xayollari totli, shirin edi.

— Sen taniqli olim bo‘lasan! — dedi Ne‘mat.

— Sen esa buyuk futbolchi! — kuldi Jo‘rabek.

Sal o‘tmayoq Jo‘rabekning niyatidan shashti qaytdi. U darrov olim tog‘asini ko‘z oldiga keltirdi. “Dang‘il-lama imorat, yengil mashinani odamlar olib berishdi”, degan edi bir suhbat chog‘ida dadasi.

— Yo‘q, do‘stim, olim bo‘lolmayman, — dedi Jo‘rabek. — Futbolchi bo‘laman, vassalom, bir jamoada o‘ynaymiz.

— Mayli, — deya ma‘qulladi uni do‘sti. — Xursandman.

Shundan so‘ng Jo‘rabek tuzala boshladi. Bir kuni saharda u choponchasini kiyib, tashqariga chiqdi. Molxonaga yurdi. Buzoqcha onasini huzur qilib emardi. Sigirning bo‘ynini ohista siladi. Sigir yuvosh tortdi. Buzoqcha dikongladi.

Jo‘rabek molxonadan chiqib, ariq bo‘yiga bordi. Oqar suvga boqib, o‘yga toldi. Uning orzulari bir talay. U tezda o‘sib-ulg‘ayishni xohlardi. To‘rt yildan keyin maktabni bitiradi va albatta otasi bilan shaharga jo‘naydi. Universitetda o‘qiydi.

U bexosdan otasi haqida o‘ylay ketdi. Otasi quyon yuraklardan emas. Nega sigir topilmaganida uning joni achimadi?!

Jo‘rabek uyga kirganida ota-onasi choy ichib o‘tirishgan ekan.

— O'g'lim, tuzalib qoldingmi? — dedi Odil aka.
— Barakalla. Sigir topilgani katta ish bo'ldi. Va'da bo'yicha keyingi haftada tog'angnikiga o'tsang kerak. Mening vaqtim yo'qroq, o'g'lim. Qo'shnimiz, tadbirkor yigit Anvar akang seni shaharga olib ketadi. Kelishib qo'ydik.

Otasi shoshilgancha o'rnidan turib dahlizga o'tdi.

— Dada, hayotning mag'zi ko'p o'qishdami yoki ko'p pul to'plashdami? Qaysi birini afzal ko'rasiz?
— Jo'rabek anchadan buyon o'zini qiynab yurgan savolini dadasiga berdi.

Kutilmagan savol Odil akani gangitib qo'ydi.

— Voy, tirrancha-ey. Aqling to'lishibdimi? — talmovsirab qoldi dadasi. — Bilsang, bu har kimning ko'ngil ishi, uqdingmi, — dedi-yu, avtobus sari yurdi.
— Pul shohga ham, gadoga ham kerak. Mol-dunyo kerak emas, xasis pul to'playdi degan odam yo ahmoq, yoki noshud. Pul hamma narsa.

Jo'rabek arosatda qoldi. U ko'rgan tushini xotirladi. "Bilmaysanmi, bolapaqir, — deb do'q urgandi tushida otasi. — Hali bolasan, g'o'rsan. Shuning uchun ko'p narsani tushunmaysan".

Suhbatga oyisi qo'shildi: "Dadangni qo'yatur, u pulning ketidan quvgan. Kechasiyu kunduzi tinim bilmaydi. Yaxshi yashaylik deydi-da".

Bola anchadan keyin o'ziga keldi. Arosat yo'l uni qiynoqqa solardi. Ulg'aygan sari hayotga qiziqishi ortardi. U ko'p o'qiydi, bilimli, otasi aytganday "kallali". Biroq pulsiz u qanday yashaydi? Otasining puli bilanmi? Axir, u birovlarники emasmi?

1979-yil, 9-may.

Anvar ketmoqchi bo'lib turgandi, orqadan kimdir chaqirdi. Qarasa, darsda uni savolga ko'mib tashlagan Zarina. «Yana biror nimani so'rab qolsa kerak», o'yladi u.

U a'lochi o'quvchilardan. Tirishqoq, lekin o'ta kamgap bola. Kuni kecha matematika bo'yicha tuman olimpiadasida g'olib bo'ldi. Ko'plar unga havas qiladi.

— Senda gapim bor, — dedi yetib olgan Zarina. Ko'zlaridan nimanidir bekitayotganligi bilinib turardi.

Ular bo'sh xonadan chiqib, yo'lak bo'ylab sport zaliga o'tishdi. U yerda kimdir kutib turgandi. Zarina kelishganidek ularni qoldirib, o'zi chiqib ketdi.

Yigit va qiz. Jimlik. Anvar hamon hech narsaga tushunmay — jim, qizdan esa sado chiqmasdi. «Qiziq, nima gapi bo'lishi mumkin? U shaharchaga qo'shni qishloqdan kelganiga ikki oy bo'ldi, ko'plarni tanimaydi. Ko'zlari chaqrab turgan mana bu qizchani ham endigina ko'rib turishi».

Nihoyat, qiz tilga kirdi.

— Men siz... siz-n-i ko'pdan beri bilama-n, — duduqlandi u. Anvar o'zini qayerga qo'yishini bilmay, tipirchilardi. O'zi bilmagan hisni sezganday, yuragi duk-duk ura boshladi. — Bilasizmi, siz-ni yoqtiraman!

Qiz shunday dedi-yu, chopqillaganicha hovliga yugurib ketdi...

¹ Bu hikoya maktabda o'qib yurgan davrimda yozilgan. Undan keyin ne-ne suvlar oqib o'tmadi, ne-ne voqealar yuz bermadi. «Armon» hikoyasi mas'um bolalik, ilk sevgi armonlarini eslatgani uchun uni qayta ishlashga, soddaroq iboralar bilan boyitishga urinib ko'rmadim. *B.O.*

Mana shu gapga ham bir yil bo'ldi. Keyingi yili u maktabni tugatadi va Toshkentga jo'naydi. O'shanda u qizning ra'yini qaytarmadi. O'sha qilmishi uchun u o'zini umrbod kechirolmaydi.

2

O'sha uchrashuvdan so'ng Anvarning o'qishlari sustlashdi. O'y suradigan, huda-behudaga achchiqlanadigan odat chiqardi. Ko'pincha ovloq joyda qizning suratiga tikilib, u bilan gaplashgisi, uzoq dardlashgisi kelardi. Aybdor kishiday qizning shahlo ko'zlariga uzoq tikilar, suratdagi qiz esa miq etmasdi. Ko'zlari husniga yarashar, qarashlarida kishini o'ziga mahliyo qilgulik mehriyosi bor edi go'yo.

Ikki yil muqaddam Anvar qishloqda yashardi. Tog'ga tutash bu qishloqchanning o'rtasidan hayqirib soy oqadi. Tog' havosining tozaligi tanani yayratadi. O, betakror bu tabiat manzarasini tomosha qilging, salqin havolaridan to'yib-to'yib nafas olging keladi. Qani endi, tashvishlardan bir lahza ozod bo'lsang-da, o'sha yoqlarga yo'l olsang. Buning o'zgacha gashti bo'ladi-da!

Mana, u yashagan pastqam qishloq uylari. Yonginasida qo'ylar uchun qurilgan qo'ra va aylanma devor bilan o'ralgan usti yopiq xonalar. Behisob qo'yi-qo'zilar sayhonlikda o'tlashadi. Bepoyon yaylovlar yashillikka burkangan. Qishloqdan sal teparoqda tog'lar savlat to'kib turibdi.

Anvarning bolalik yillari ana shu so'lim, xushmanzara Qadoq qishlog'ida o'tdi. Ayniqsa, xayrlashgan maktabi qarddon bo'lib qolgan unga. Shu dargohda o'qidi, ulg'aydi. O'z porloq "yulduzi"ni shu yerda uchratdi. Keyin esa...

Dunyo ishlari qiziq-da. U otasining raykomga ishga olinishini qayerdan bilsin? Xayrlashish onlari naqadar og'ir edi.

— Bir umrlik bo'lib qoldik-a. Kelib turing, — degandi o'shanda sinfdoshi Zebo.

Qiz bu so'zlarni hazilga yo'yib aytdimi, chindanmi, to'g'rirog'i bilmaydi. Harqalay, o'zini yaqin olib yurgan qiz uning yuragiga g'ulg'ula solgandi. Negadir qizni ko'p eslaydigan bo'ldi.

— Keling, bekinmashoq o'ynaymiz, — deya taklif qildi bir kuni. — Topsangiz, omadlisiz!

— Bo'пти, topaman!

Qiz qo'llarini orqasiga yashirdi. Uning tiyrak ko'zlarida xokсорlik, latofat mujassam edi.

— Mana, oling, — iymanibgina o'ng qo'lini uzatdi u, — baxtingiz...

Anvar tanladi. Xayriyat, omadi chopdi. U nihoyatda shod, quvonchi ichiga sig'masdi. Lekin qizginaning ikkala hovuchida ham tosh borligini sezmedi, qizning nozik qalbidagi sirni kashf etolmadi...

Ular ko'p bahslashar edi. Qizning ziyrakligiga qoyil qolardi. Muhabbatini qozona olmagan bu sho'x, hazilkash, samimiy qiz boshqalardan ajralib turardi.

Xayrlashish chog'ida ko'zlar to'qnashdi. Bu go'yo bir umrga muhrlanib qoldi.

Anvar qishloqdan butunlay ketib qoldi. Ammo kitoblari orasida birga kelgan bir suratni avaylab asradi. Bu uning ilk muhabbati edi.

3

Oxirgi kunlarda ko'proq Zeboni o'ylaydigan bo'ldi.

Otasi raykomda ishlaydi, xizmatdan kech qaytadi, ertalab esa otasi yana ishga, u maktabga shoshiladi.

— O'g'lingizning rangi-ro'yiga qarang? Bir o'tirib, gaplashib olsangiz bo'lardi. Katta bo'lib qoldi, axir. Otalarga hayronman-da, — deya ba'zan gapirib qo'yardi oyisi.

“Yo'q, u hech qachon ichidagini chiqarmaydi. Nima qilishsa-qilishsin, mayli”, o'zicha mulohaza qilardi Anvar.

U qadrdon qishlog'ini, sinfdoshlarini, ayniqsa, Zeboni ko'rgisi kelardi. Ba'zan hammasini unutib, go'yo shahar hayotiga ko'nikib ketganday bo'lardi. Nogahon suratni — kulib turgan o'sha sho'xchan ko'zlarni ko'rib qolardi-yu, yana xayollari qishloqqa chopardi.

Oxiri qishloqqa, Zeboga xat yozishga ahd qildi. Iztirob so'zlariga to'la bu maktubni yozdi ham.

“...Menga ishonib, Zeboxon. Men sizni yaxshi ko'raman. Men uchun yagonasiz”. Qarang-a, bu so'zlarni qayerdan oldi. Qalban buni his qilmaydi-ku? Qaysi bir kitobda o'qishicha, oshiq kishilarda his-tuyg'u kuchli bo'ladi. Bir-birlarini ko'rib qancha sevinishsa, keyin shunchalik azob chekishadi, — U shu so'zlarni yozgach, ko'nglida saqlab yurgan fikridan qaytardi.

«Bu o'z-o'zini aldash emasmi, axir? — Darrov xatni yirtib tashladi. Nega bunday qilyapman o'zi? Nima uchun begona ... butunlay begona bo'lgan qizga maktub yozadi?! Ochiq o'tirib gaplashishmagan-ku?! Bari bolalik o'ylari. Balkim qiz uni sevmas».

Kunlarning birida kutilmagan hodisa ro'y berdi. Shu hodisa uning g'uborsiz bolalik orzu-umidlarini to'zg'itib yubordi.

Peshin chog'i maktabdan qaytayotgan edi, oldidan pochtaiyon chiqib qoldi va negadir qo'liga xat tutqazdi.

Shoshib konvertning yuziga qaradi va birdan chehrasi yorishdi. Maktub Zebodan edi. Lekin quvonchi uzoqqa cho‘zilmadi. Xat unga emas, sinfdoshi Gulnoraga yozilgan edi. Pochtalyon uni Gulnoraga yetkazib qo‘yish uchun Anvarga bergandi.

“Maktubda nimalar bitilgan ekan?” Bu Anvar uchun o‘zligini qayta kashf etish bilan barobar edi.

Xayol bilan boshqa darvozaga to‘g‘ri kelganligini sezmay qoldi. Bu o‘tib bo‘lmaydigan to‘siq edi! Qaradi. Tanish qiz uzoqdan yurib kelyapti. Shundagina voqeaning fahmiga yetganday bo‘ldi. Ko‘zlari g‘azabnok tus oldi. Hatto kutib ham o‘tirmay, xatni qutiga tashladi-da, qaytib ketdi.

4

Bitirish imtihonlari tugadi. Anvar uchun asosiy hayot imtihonlari hali oldinda turibdi.

— Sen albatta, o‘qishing kerak. Kelajaging yorug‘ bo‘lishiga ishonaman, — dedi direktor yetuklik attestatini topshirayotib.

Anvar imtihonlarni yaxshi baholarga topshirdi, ammo mandatdan o‘tolmadi. «Bu yil bo‘lmasa kelasi yil kiraman» — qat‘iy qarorga keldi u. Uyga quruq qo‘l bilan qaytib borish uyat. Nihoyat, shunday qarorga keldi: «Shaharda qolib, zavodda ishlayman, uydagilarni ham shunga ko‘ndiraman».

5

Ajoyib kunlarning birida Gulnoradan xat keldi.

“Axir, bu qizda nima gunoh, — o‘zicha o‘ylardi Anvar. — Ko‘nglim boshqada ekanligini qayerdan

bilsin, bechora?! Aslida ayb o‘zimda, bolalik qildim! Zebo haqida Gulnoraga aytishim kerak edi”.

U maktubni o‘qiy boshladi.

“Hurmatli Anvar aka, — deb yozibdi u. — Sizning mendan xat kutmasligingizni bilaman. Ko‘rishmaganimizga ham ancha bo‘ldi. O‘qishdan yiqilgach, gilam to‘qish fabrikasiga ishga kirdim. Maktablik yillarimiz ajoyib davr bo‘lgan ekan... Balkim, meni endi unutgandirsiz. Bilasizmi, bir voqea qo‘limga qalam olishga majbur qildi. Hammasini sizga yetkazishni burchim, deb bilaman.

Yaqinda qishlog‘ingizda bo‘ldim. Fayzli qishloqcha bir ko‘rishda meni maftun ayladi. Tasodifan to‘y ustidan chiqib qolibmiz. Qishloq qizlari bilan yor-yorga chiqdik. Zebo degan qizning to‘yi bo‘layotgan ekan. Uni bolaligimda ham ko‘rgandim. Ha, tuman markaziga olimpiadaga kelgandi... Men yangam bilan birga edim. Zebo sizning ismingizni tilga olib uzoq yig‘ladi. O‘shandagina hammasiga tushundim. Ko‘z oldim qorong‘ilashib ketdi. Zebo sizni ancha yil kutgan ekan. Siz insofsiz va yolg‘onchi ekansiz. Sirtingizga chiqarmaganingizga qoyilman! Bildim, bu latofatli qiz bilan sakkizinchi sinfgacha birga o‘qiganingizni... Aslida, menga iliq munosabatingiz shunchaki havas edi. Ko‘nglingiz yo‘qligini bilardim. Lekin buning sababidan bexabar edim.

Endi bilsam men oraga tushgan cho‘p, boshqa hech narsa emas ekanman. Meni kechirishingizni so‘rayman.. Omon bo‘ling. Gulnora”.

Anvarning vujudini sovuq ter qopladi. Qaltiragan qo‘llaridan qog‘oz sirg‘alib yerga tushdi.

U o‘zining birinchi va hatto «ikkinchi» muhabbati bilan umrbod vidolashganini anglab yetdi...

1977-yil 1-dekabr.

NAVOIYGA QAYTISH

O'lkamizga fasllar kelinchagi bahor kirib keldi. Har yili Navro'zni intiqlik ila qarshi olar ekanmiz, beixtiyor o'tib ketgan buyuk shaxslarning betakror siymolari ko'z o'ngimizdan o'taveradi. Ularning dono fikrlari, yorqin qarashlari, dilkash suhbatlari xayolimizda gavdalanadi. Chunonchi, bir necha avlodlarning ko'ngil mulkiga aylangan, ruhiy quvvat bo'lguvchi nosir, olimu shoirlarning betakror siymolari qalbimizga ko'tarinkilik, yaxshi kayfiyat baxsh etaveradi. Shunday zotlardan biri hazrat Navoiydir. Buyuk bobomizning ushbu satrlariga bir e'tibor bering:

*Bahor bo'ldiyu mayli gul qilmadi ko'nglum,
Ochildi g'unchayu, lekin ochilmadi ko'nglum.
Yuzing xayoli ila vola erdim andoqkim,
Bahor kelgan-u, ketganini bilmadi ko'nglum.*

Beixtiyor, Navoiyning insonga ruhiy quvvat berguvchi shoh satrlari vujudingizni qamrab oladi. G'amgin, tushkun holatdan forig' bo'la boshlaysiz. "O, she'riyat, naqadar jozibali va fusunkorsan", deya shivirlay boshlaysiz. Navoiyning esa ruhiy olami bepoyon va ulug'vor. "Bu badiiy miniatyuralarning (*g'azallar. B.O.*) yaratilganiga besh asrdan oshdi, — deb yozadi yirik adabiyotshunos olim Najmiddin Komilov, — lekin kecha yozilganday hamon ruhimiz, shuurimizni g'alayonga solib, dillarga halovat

bag'ishlaydi, o'qigan sari yana o'qigingiz, baytlar ketidagi sehrli va sirli ma'nolarni teranroq, to'laroq anglab olgingiz keladi".

Haqiqatan ham, Navoiy g'azallarining sharhini, izohli lug'atini tezroq nashr etish, o'lmas epik dostonlarining mazmun-mohiyatini yosh avlodga to'laroq anglatish uchun kenroq tadqiqotlar olib borish payti kelmadimikan? Navoiy — xalq, millat timsoliga aylangan ekan, «Navoiy jamg'armasi» tuzilib istak-rejalar amaliyotga ko'chsa, targ'ibot ishlari kuchaysa, bundan el-ulus yutgan bo'lardi, albatta.

Navoiy faqat adabiyot, ma'rifat ahliga emas, balki ko'plab sohalarga homiylik qildi. Uning homiylik faoliyati bugungi istiqloq davri kishilari uchun ham saboq bo'lgulikdir! Hazrat tamom boyligini masjid, madrasalar, hammom va shifoxonalar, rabot va musofirxonalar qurilishiga, suv chiqarib shahar qishloqlarni obod qilishga sarfladi. Bu haqda Xondamirning "Xulosat ul-axbor" va "Makorim ul-axloq" asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu o'rinda ulardan ayrim parchalarni keltirishni lozim topdik:

"Ixlosiya madrasasi. Injil arig'i bo'yi nihoyatda zebziynatli qilib ishlangan.

Xalosiya xonaqosi. Yuqorida zikr etilgan madrasaning qarshisida bo'lib, g'oyatda g'o'zal va ko'rkam qilib qurilgan. Bu yerda ham yirik olimlardan uch nafari ilm o'rgatish va dars berish bilan mashg'uldirlar... Ul fayzli joyda har kuni mingdan ortiq zaifalar va miskinlarni ziyorat qilib, shirin taomlar bilan to'ydiriladi. Har yili muhtojlarga ikki mingga yaqin po'stin, bosma chakmon, ko'ylak, ishton, taqiya va kafsh ulashiladi". (*Qarang: Navoiy*

zamondoshlari xotirasida. T., Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985, 89-bet). Shuningdek, son-sanoqsiz bog'lar, manzillarni hazrat sayyidlarga, olim va fozillarga in'om qilgan. Hatto ba'zida xalq soliqlarni to'lashdan qiynalganida bu mablag'larni o'z hisobidan to'lab yuborgan.

Xo'sh, Navoiyga qaytish, o'qib-o'rganish, undan ibrat olish uchun nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Bizningcha, birinchi ma'rifiy qadam — Navoiy asarlari sharhini nashr etish zarurga o'xshaydi. Hozircha 1991-yilda «Kamalak» nashriyotida chop etilgan «G'azallar, sharhlar» kitobi yagona bo'lib, unda o'n sakkiz g'azalga sharh berilgan, xolos. Yana manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak, Adabiyot va san'at nashriyotining «Mumtoz adabiyot» bo'limi 80-yillarda xayrli ishga qo'l urib, "Xamsa"ga kirgan barcha dostonlarning asli va nasriy bayonini bir kitob holida bosmadan chiqargan edi. Endilikda bu kitoblarni topish mushkul bo'lib qoldi. Bundan tashqari, Xalq ta'limi vazirligi tavsiyalari va buyurtmalari asosida uning qayta nashrini amalga oshirish va barcha o'quv dargohlariga tarqatish mumkin. Xalq ta'limi va Oliy ta'lim dargohlarida Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida metodologik asosda yozilgan yaxshi qo'llanmalarga ham ehtiyoj katta. Shoirning "Hikmatlar" kitobini alfavit tartibida tayyorlab chop etilsa, fikr dunyomiz yanada teranlashardi.

Maktab o'quvchilari Navoiyning hayoti mobaynida to'plagan boy tajribasi va o'z xulosalarining yig'indisi bo'lgan "Mahbub ul-qulub" ("Qalblar sevgilisi") asarini bot-bot o'qib chiqishsa, ayni muddao bo'larmidi?! Kitob mundarijasi ajoyib tarzda tuzilgan bo'lib, u uch qismdan iborat. Birinchi qism:

“Kishilarning ahvoli, fe’l-atvori va yomon xislatlar”, ikkinchi qism: “Yaxshi fe’llar va yomon xislatlar”, uchinchi qism: “Turli foydali maslahatlar va maqollar”. Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu asar ayni mustaqillik yillarida hayotiy qo‘llanma vazifasini bimalol o‘tay oladi. Unda turli kasb sohiblarining jamiyatdagi asl vazifasi, o‘zini tutishi, maqsad-muddaosi, hayotda qanday shiorga ega bo‘lishi juda aniq-tiniq tasvirlanadi. Deylik, ilmsiz, vijdonsiz, buzuqlik, sharobxo‘rlik, fisqu fujurga ruju qo‘ygan diyonatsiz mansabdorlarni Navoiy qattiq tanqid ostiga oladi. Ular hozirgi kunda ham malomatga duchor. Bundaylarni shoir fuqaro xizmatiga hamisha tayyor bo‘lmoqqa chaqiradi. Ashulachi va cholg‘uchilar haqida yozayotib, “ular agar yil bo‘yi sening ehsoningdan bahramand bo‘lgan esalarda, yoningdan tanimay o‘tib ketaveradilar. Oz olsalar yerga uradilar va ko‘p olsalar qadrlamaydilar”, deydi.

Biz yaxshi fe’l va yomon xislatlarimizni (ayni paytda ichki olamimizda ular to‘lib yotibdi) bilmoqchi bo‘lsak, xuddi ko‘zguga razm solgandek, hazrat Navoiyning asarlarini o‘qishimiz zarur bo‘ladi. Mustaqillik davrida maqsadimiz inson qadrini ulug‘lash, yurtdoshlar o‘rtasida mehr-oqibatni yuksaltirish, el tashvishi, dardi bilan yashash, tinchlikka va barqarorlikni saqlash va mamlakatni rivojlantirish ekan, bu ezgu ishlarda ma’naviy Ustozimiz hazrat Navoiyning

*Odamiy ersang, demagil odami
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami*

degan so‘zlari madadga kelaveradi.

Zero, milliy g'ururimizni ko'tarish, kelajakka ziyraklik, umid ko'zi bilan qarash, milliy g'oya va mafkurani odamlar ongiga singdirishda buyuk Navoiyning pishiq-puxta fikrlari, zukko qarashlari hali ko'p yordam beradi, degan umidimiz bor. Navoiyning ma'naviy bulog'idan bahramand bo'lish va albatta, o'z-o'zini anglash saodati har birimizga nasib etsin deymiz.

2000-yil 9-fevral

SOHIBQIRON SABOQLARI

Milliy mafkura shunday kuchli vositaki, u har qanday tahdid, xavf-xatarlarga qarshi turuvchi asosiy qurol vazifasini o'taydi. Tarix tajribasi shundan dalolat beradi. "Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan", — deyiladi "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" kitobida. Darvoqe, Hazrat Sohibqiron hukmronligi (1370-1405) davridagi ko'plab ibratli tadbirlar ayni damda ham o'z qadr-qimmatini yo'qotmagan. "Zafarnoma"da yozilishicha, Amir Temurning fuqarolar tinchligini saqlash, savdo-sotiqni rivojlantirish, vayron bo'lgan shaharlarni qayta tiklash, ilm ahliga sharoit yaratish, bog'lar barpo qilish bobida amalga oshirgan xayrli tadbirlaridan hozir ham o'mak olsa arziydi. Tarixchilarning guvohlik berishicha, bu davrda savdo karvonlari mamlakatning istalgan hududida bimalol yura olgan. Savdogarlar bu imkoniyatlardan bahramand bo'lib, savdo-sotiq

ishlarini ancha kuchaytirganlar. Bundan birinchi navbatda shahar xalqi behad foyda ko'rgan, boyigan. O'sha paytdayoq ko'pgina urug'-qabilalar iqtisodiy jihatdan oyoqqa turib olganlar.

Ayonki, Hazrat Sohibqironning asl niyati — qadimgi Ipak yo'li karvonlari Movarounnahr o'lkasi shaharlaridan o'tishini ta'minlash edi. Afsuski, Amir Temur o'limidan keyin ushbu reja amalga oshmay qolib ketdi...

Hazrat Sohibqironning jang uslubi takrorlanmas, o'ziga xos edi (*bu haqda tadqiqotlar kam. B.O.*). Amir Temur o'z imon-e'tiqodi yo'lida oxiriga qadar kurashgan tabarruk zot edi. Savdogarlar yuborish, darveshlar xizmati, xufyona tahdid qilish, oshkora ogohlantirish, qal'ani olishda lahmlar qazish singari usullar barobarida u ko'zlagan niyatiga erishgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma"sida yozilishicha, Hirotga hujumi oldidan ikki ming asirni Sohibqiron huzuriga keltiradilar. Hazrat ularni avf etadi va "kimki o'z uyidan chiqmasa va qal'a fasiliga bormasa, uning o'zi va ahlu ayoli o'monlikda bo'ladi. Aks holda, neki ko'rsalar, o'zlaridan ko'rsinlar", degan farmon chiqaradi. Bu hiyla yaxshi foyda beradi. Aholi o'z tinchligini o'ylab, Malik G'iyosiddinga bo'ysunmay qo'yadi. Bozor va mahallalarda safarbarlikka harchand urinmasinlar, aholi qurollanishdan va qal'a devorlariga chiqib shaharni himoya qilishdan bosh tortadi. Bu voqea 1381-yilning aprelida bo'lib o'tgan edi.

Sohibqiron mamlakatlarni qo'lga olish paytida ko'pincha shaharlar vayron etilgan, degan ovozlar yuradi. Albatta, jangu jadal talafotsiz bo'lmaydi. Ammo manbalarning guvohlik berishicha, Amir Temur

ko'p hollarda shaharlarni vayron qilmasdan, tinch yo'l bilan qo'lga kiritishni afzal ko'rgan. Bunda shahar xiroj pulini to'lashga majbur bo'lgan, xolos. Aholi "moli omon", ya'ni qo'shin otlarining nag'al bahosiga teng tavon pulini to'lagach, talanishdan o'zini saqlab qolgan. Masalan, 1381 va 1383-yillarda Hirot, 1387 va 1393-yillarda Sheroz shaharlari ana shunday "moli omon" hamda o'lponni to'laganlar.

Amir Temur saltanatida soliqlarni yig'ib olishda ham tartib-qoidaga qattiq rioya qilingan. Bosib olingan shaharning dahalariga yuborilgan amirlar soliqlarni Devoni Oliyga o'z vaqtida yetkazib turishgan. Shahar darvozalaridan birida Devoni Oliyning mahkamasi joylashgan. Boshqa darvozalar yopilib, unga soqchilar qo'yilgan. O'lpon undirib, boyliklar musodara etilgandan so'nggina darvozalar ochilgan. Demak, o'sha soniyagacha aholining shahardan chiqib ketishiga yo'l qo'yilmagan, boyliklar talon-toroj etilmagan, soliq yig'uvchilarning ishiga xalaqit berilmagan.

Amir *Sohibqironning yurishlari bayonida* ham ibrat bo'larli jihatlari ko'p. Hazrat xoh jangda, xoh tinch yo'l bilan bo'lsin, dushmanni mag'lub etgach, o'z huzuriga bosh urib kelganlarni juda iliq kutib olgan, yomon e'tiqodlari sababli ularga tahdid qilib qattiq so'zlar aytgan, ahli sunnat, shariatga amal qilganlarni esa siylagan. Dinsizlar yo'lidan pushaymonlik bilan qaytgan, shariat va islom yo'liga kirganlarini bilgach, ularni siylab, sargo va in'omlarni tortiq etgan. Hazrat xoh Iroq va Ozarbayjonda, xoh Rum va Fors mamlakatida bo'lsin, umrining oxirigacha bu e'tiqodidan qaytgan emas.

Shomiyning «Zafarnoma»sida qayd etilganidek, kimiki "boshni qullik chizig'iga va qadamini itoatkorlik

doirasiga kiritib (qal'adan) chiqsa, Hazrat Sohibqiron o'zining podshohlik odatiga ko'ra, ularning gunoh va xatolarini avf aylab, mehribonlik va rahm-shafqat ila taqdirladi”.

Kechirimlilik — irodali rahbarlarning xislati. Yurtboshimiz faoliyatida ham ana shu holat ko'p marotaba takrorlanganining guvohi bo'lamiz. Deylik, 80-yillar oxiridan boshlab jamiyatimizda mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lgani oqibatida ayrim yoshlarimiz turli oqimlar ta'siriga tushib qoldilar. Ular yot g'oyalarga berilib, o'z oilasi, mahallasi, jamiyatga ko'p tashvish orttirganiga shohidmiz. Ammo shunga qaramay, Prezidentimiz Islom Karimov adashgan, aldangan bu yoshlarni kechirdi. Natijada ular tahlikali joylardan o'z uylariga qaytdilar.

Darhaqiqat, Amir Temur va temuriylar davri tarixini o'rganish va tahlil qilish bizga hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan ko'pdan-ko'p xulosalar chiqarish imkonini beradi. Jumladan, buyuk bobomizning bugungi avlod uchun saboqlari ushbulardir:

— Adolatli, xalqparvar siyosat yuritgan, aholiga jabr-zulm o'tkazganlarni, o'g'ri-talonchilarni, bosqinchilarni esa qattiq jazolagan. Xalq bunga javoban Amir Temur olib borgan siyosatni qo'llab-quvvatlab, u o'rnatgan qonun-qoidalarga rioya etgan.

— Mahalliy amaldorlarning xalqqa munosabati, bozorlardagi narx-navo, joylardagi tartib-intizom haqida aniq, to'g'ri ma'lumotlarni... topshiriq bilan yuborilgan ishonchli vakillaridan muntazam olib turgan. Xalq bilan doimo uchrashgan, uning arz va shikoyatlarini bevosita ko'rib va eshitib hal qilgan.

— Mansabdor shaxslarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yish, faoliyatini nazorat qilishga alohida e'tibor bergan. Mansabga tayinlashda birinchi galda nasl-nasabini, bilimini, qobiliyatini, hayotiy tajribasini, axloqiy sifatlarini, xalqiga sadoqatini hisobga olgan.

Ushbu saboqlar XXI asrda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Biz Sohibqironning jang taktikasi, aholi to'lagan soliqlar tizimi, mag'lub tomonga rahm-shafqat, imtiyozlar haqida yana istagancha ijobiy misollar keltirishimiz mumkin. Ammo shu o'rinda Amir Temurning jangu jadallardan Samarqandga muzaffariyat bayrog'ini ko'taribgina emas, balki ilm ahli, hunar sohiblarini ham birga olib kelganini, bu esa Hazratning dovrug'ini yetti iqlimga yoyganini, hatto bugungi avlodlarga ham o'rnak bo'lganini aytmay ilojimiz yo'q. Manbalarda aytilishicha, ko'chirib olib kelingan kishilarning ko'proq qismini tabrizlik (1386-yilgi jangu jadalda), sherozlik (1388), bag'dodlik (1393), dehlilik (1399), damashqlik (1401) hunarmandlar tashkil etganlar. O'sha davrlarda Sherozdan olim Said Sharif Qo'rg'oniy, Bag'doddan musiqachi Abdulqodir Marog'iy, rassom Abd al-Hay, Damashqdan tabib Jaloliddin singari zamonasining yuzlab mashhur kishilari yurtimizga ko'chirib kelingan. Keyinchalik bu zotlar o'z sohalari rivojiga ulkan ulush qo'shdilar.

Ma'lumki, Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" si 1404-yil 13 martgacha bo'lgan tarixiy voqealarni qamrab oladi. Undan keyingi voqealarni Shohruh ishorasi bilan Hofizi Abro' yozib qoldirgan. Jumladan, u 1404 yil mart oyining o'rtalaridagi voqealar to'g'risida shunday so'zlarni bitadi:

“Hozirgi vaqtda aziz farzandlardan har birini qo‘l ostimizdagi mamlakatning bir tarafini boshqarmoqqa tayinlayotgan ekanmiz, — deyilgach, amirzoda Umar bahodirga quyidagi hukm o‘qiladi: — (nomi) yuqorida eslatilgan suyakli farzand ham o‘z navbatida, (zimmasiga yuklangan) ushbu ulug‘ ishni shu yo‘sinda olib borsinki, toki u adolat, haqiqat, hukmdorlik zaruriyatlari va raiyatparvarlik uchun kafolat bo‘la olsin hamda uning qoidalariga shunday bir tarzda amal qilsinki, toki u olamning obodligi va insoniyat tinch-totuvligi bilan yakun topsin: solih kishilar... tirishqoqlik namoyish etib, mufsidlar, avboshlar, jinoyatchilar va qaroqchilarni hamda shariatga xilof ishlarning ko‘payishini va noloyiq qonun-qoidalarni tag-tugi bilan yo‘qotishni zarur va lozim, deb bilsin. Shundagina mamlakat ishlari bir tekis boradi: saltanat mavqei va to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq barqaror bo‘ladi. Ko‘mak va omad Allohdan”.

Shu tariqa, hukm o‘qib eshittirilgach, Amir Temur Ozarbayjon va Iroq, Ajam mamlakatlarini amirzoda Umarga ishonib topshiradi. Unga amir Jahonshoh ibn amir Jokuni qo‘shib yuboradi. Ha, Sohibqiron odatda tajribali, ishongan kishisini otabek qilib berardi. Saltanatda shunday qoida hukm surgan: shahzoda ma‘lum bir yoshga yetganida, unga bir hukmdor bilishi kerak bo‘lgan narsalarni o‘rgatish uchun otabek tayinlangan. Masalan, Shohruhga amir Aliaka Ko‘kaldosh, Shohruh o‘g‘li Ibrohim Mirzoga amir Usmon Abbos, Ulug‘bekka bir muddat amir Shohmalik, Mironshoh o‘g‘li Xalil Sultonga amir Yahyo otabek etib tayin etilgan edi.

Qisqa qilib aytganda, Sohibqironning davlat boshqaruvidan behisob ibratli saboqlar olishimiz

mumkin. Biz 1991-yilda istiqloлга erishib, o'tish davri mashaqqatlarini boshdan kechirayotgan paytda asrlar sinovida toblangan yuqoridagi qoida, o'gitlar albatta, asqotdi, deb o'ylaymiz. Zero, Amir Temur "Kuch — adolatsidir" degan shiorni bayroq qilib olgandi.

Tan olamizki, kundalik turmushimizda gohida adolatsizlik, aldanchilik, ko'zbo'yamachilik holatlari uchrab turadi. Biz mustaqil mamlakat ravnaqi yo'lida bunday illatlardan kunba-kun tozalanib borishimiz darkor. Bu esa odamlar ongi, ruhiyatida yomon asoratlar qoldiradi. Bular jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Modomiki, yurtboshimiz Islom Karimov "O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat" g'oyasini ilgari surgan ekan, yorug', farog'atli kunlarga yetishda Amir Temurning davlatni boshqarish tamoyiliga oid tuzuklari, yo'l-yo'riqlari benazir xizmatlar qilishidan umidvormiz.

Shu o'rinda, ulug' davlat arbobi va sarkarda, fan va madaniyat homiysi Amir Temurning mo'g'ullar istilosi asoratidan Vatanni ozod etib, markazlashgan qudratli davlatni tiklashi, uyqusiz jangu jadallari, favqulodda iste'dodli inson shaxsiyatidagi ziddiyatlar tafsiloti haqida batafsil hikoya qiluvchi "Zafarnoma" juda katta qimmatga molik kitob ekanligini qayd etmoqchimiz. Uni chuqur o'rganish, yangi tadqiqotlar olib borish siyosatshunoslik ilmidagi yaqin vazifalarimizdan biridir.

Alalxusus, Sohibqironning qo'llagan yo'l-yo'riqlari va ijtimoiy-siyosiy tadbirlaridan oladigan saboqlarimiz hali oldindadir.

*"Qalb ko'zi" gazetasi, 2001-yil,
6-aprel.*

JAMIYAT MAFKURASIZ YASHAY OLMAYDI

Inson kamoloti, yuksak parvozi uning ichki ruhiy olami go'zalligi bilan uzviy bog'langan. Go'zal xulqli, ma'rifatli, diyonatli odam jamiyat ko'rki sanaladi. Ular oila va davlatga ko'p naf keltiradilar. Bunday shaxslar ko'payishi va katta kuchga aylanishi uchun ma'rifiy zamin tayyorlashimiz lozim. Demakki, targ'ibot va tashviqot ishlarini yuqori darajaga ko'tarish fursati keldi.

Yurtboshimiz 2000-yil 6-aprel kuni Oqsaroy qarorgohida bo'lib o'tgan davra suhbatida kuyinib gapirganidek, ayni damda jamiyat milliy ruhda yozilgan o'quv va bolalar adabiyotlariga katta ehtiyoj sezayotir. Buning uchun ta'lim (maktab va institut) va tarbiya (oilalar, mahalla, maktab) tizimidagi ma'naviy bo'shliqni birinchi galda to'ldirish zarur. Negaki, bolalar kitoblari sahifasidagi qahramonlar mard, olijanob, rostgo'y bo'lmog'i kerak, bizda esa ayyor, qallob, odobsiz "qahramon"lar siymosi hali-hanuz kamaygan emas. Ajablanarli jihati shundaki, maktab o'quvchilarining fizika, matematika, chizmachilik kabi aniq fanlardan bezib qolayotganligi, mexanika, energetika kasblariga qiziqish so'nayotganligi, "Men huquqshunos yo soliqchi, bojxonachi bo'laman — jazolayman, tekshiraman!" — deydigan o'smirlarning ko'payayotganligi hammamizni chuqur o'yga toldiradi.

Shu o'rinda, "mafkura" so'zi haqida ikki og'iz. Bundan 203 yil oldin fransuz olimi Destut de Trasi

birinchi marta “mafkura” (ideologiya) atamasini ishlatgan ekan. Sodda qilib aytganda, mafkura — manfaatlarni ilgari suradi. U siyosiy ongning shakllantirish usullaridan biri. Ma'lumki, insonning siyosiy ongi shakllanishi uzoq jarayon bo'lib, siyosiy mafkura (manfaatlar), siyosiy dunyoqarash (ta'limot, doktrina), siyosiy psixologiya (ruhiyat) ga ega bo'lgandagina unga erishiladi. Mafkura — mavjud tizim asosida shakllangan dasturiy ko'rsatmalarni amalga oshirish strategiyasi, dasturni amalga oshirishga doir aniq o'zgartirishlar yoki harakatlardir. U turgan gapki, millatning inqirozga yuz tutishiga yo'l qo'ymaydi.

Prezidentimiz ilmiy asarlarida “O'zbekiston — kelajagi buyuk davlat” g'oyasini amalga oshirish yo'llari ilgari surilgan. Xalqni — xalq, millatni — millat qilishga xizmat qiladigan mazkur g'oyani keng ommaga yoyish uchun ustuvor vazifalarimiz nimalardan iborat, degan savol ayni damda ko'pchilikni o'yantiradi.

Keling, savolga birgalikda javob izlaylik. **Birinchi** va eng muhim masala, bu — ta'sirchanlikdir. Millatni bir g'oya atrofida birlashtirish uchun har bir tadbirda maqsad aniqligi va ta'sirchanlik zarur bo'ladi. Toki, biz ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda quruq rasmiyatchilik, odamlarga ta'sir ko'rsatmaydigan siyqa usullardan voz kechmas ekanmiz, ko'zlagan rejalarimiz ijrosi cho'zilaveradi. Notiqlar — ta'sirchan kuchga ega armiya. Men iste'dodli notiqlar guruhi jamiyatni istiqloq g'oyasi atrofida birlashtirish qudratiga ega ekanligiga ishonaman. Agar ular “Ma'naviyat va ma'rifat” kengashi qoshida yig'ilsa va yangi konsepsiyani amalga oshiruvchi kuchga aylansa, ayni muddao bo'lardi.

Menimcha, og'ir va mashaqqatli bo'lgan milliy mafkurani shakllantirish jarayoni chin vatanparvar ziyolilar, siyosatchilar, ma'rifat va madaniyat ahli uchun haqiqiy sinov, imtihon davriga aylanadi. Jahon tarixida bunday fidokor kuchlarni inqilobchilarga o'xshatishlari bejiz emas.

Ikkinchidan, milliy g'oya va milliy mafkura hozirdanoq ta'lim tizimi shoxobchalarida to'liq o'rin olishi kerak. Yaponiya, AQSh, Germaniya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi bunga jonli misol. Men o'zim ikki yildirki, O'zbekiston Qahramoni M. Ismatova rahbarlik qilayotgan Toshkent shahridagi 273-litsey maktabda shanba kunlari dars berib kelaman. Biz iste'dodli bolalardan tashkil topgan 6 "B" sinfini tanlab olgan edik. Bolajonlar 9-sinfga qadam qo'yishdi. Bo'ylari o'sganiday fikrlari va hayotga tiyrak qarashlari ham o'zgardi. O'quvchilar jurnalistika darsida axborot, xabar, maqola yozish, gazeta-jurnallarni tahlil qilish bilan birga, respublika hayotiga oid turli masalalar haqida o'zlarining erkin, oshkora fikrlarini bildira boshladilar. Bolalarning to'g'riso'zligi, sinchkovligi, hushyorligi va muhimi, kelajagiga ishonchi meni lol qoldiradi. Chunki bular erkin zamon, istiqlol farzandlari-da. Demakki, bugungi maktab o'quvchilariga milliy g'oyaga xizmat qiluvchi zarur adabiyotlar yetkazilsa, mustaqil fikrlaydigan ertangi fidokor yoshlarimiz soni yanada ko'paydi.

Agar kunchiqar mamlakati Yaponiyadagidek, bizning o'g'il-qizlarimiz ham bog'cha, maktab, litsey, kollej va institutlarga kelib dars boshlashi bilanoq: "Men O'zbekistonimizning buyuk kelajagiga ishonaman!" degan so'zlarni zavq-g'urur bilan takrorlab, saboqni boshlashsa, ayni muddao bo'larmi-

di. Negaki, ish boshida milliy g'urur bo'lmas ekan, milliy mafkuramiz ham bo'lmaydi.

Uchinchidan, jamiyat barometri vazifasini o'taydigan matbuotning ta'sirchanligi va ta'sir doirasini kengaytirish vaqti allaqachon yetib keldi. Nega "Trud", "Argumenti i fakti" gazetalarini o'quvchilar tomonidan maroq bilan o'qiladi-yu, respublikamiz gazetalarini varaqlaganda zerikib ketamiz, degan savol hammani qiynab keladi. Agar unga javobni kechiktirsak biz mustaqillik bergan imkoniyatdan foydalanmagan bo'lamiz. Xulosa shuki, matbuot siyosatida yangilanish yuz bermas ekan, milliy g'oya va milliy mafkuraga loqayd bo'lgan ba'zi kuchlarning "faoliyati" sirli va mavhumligi ochilmay qolaveradi...

Yurtboshimiz Oliy Majlisning XIV sessiyasida yaxshi ta'kidlaganidek, "ayni shu ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak". Erkin minbarga esa erkin imkoniyatlar zarur.

O'z navbatida, Toshkentdagi yirik respublika gazetalarini hatto chekka-chekka qishloqlarga yetib bormayotganligi, demakki, hukumat qarorlari ayrim tuman korxonalarini, xo'jalik rahbarlari, maktab direktorlariga kech yetkazilayotganligiga aslo toqat qilib bo'lmaydi. Nashriyotlar chiqaradigan kitoblar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin. Kutubxonalar jamg'armasini shakllantirish va ularni yangi davr ruhida kitoblar bilan to'ldirish masalasini ham moliyaviy qo'llab-quvvatlash kerakka o'xshaydi.

To'rtinchidan, O'zbekiston televideniysi ish uslubini o'zgartirish zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Sir emaski, so'nggi yillarda televideniye matbuot o'rnini birmuncha egallab, inson tafakkuriga ta'sir ko'rsatuvchi kuchli vositaga aylandi. Xo'sh,

o'zbek televideniyesi tomoshabin ehtiyojini qondiryap-timi? To'g'ri, oxirgi paytlarda televideniymiz mustaqillik g'oyalarini, Prezidentimiz nutqlari va fikrlarini xalqqa operativ yetkazish yo'lida ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi. Ammo ish uslubidagi kamchilik — boshlovchining ko'proq o'zini reklama qilishi, arzon-garov "suhbat"lar, "Tabriklaymiz-qutlaymiz"lardan qochib, harakatdagi jonli televideniya ekraniga aylanish masalasi hamon yechilmagan. Tomoshabinlar bir xillik, musiqaviy takrorlar, san'atkorlarning zo'raki oilaviy tasvirlari, g'arbona video-shou, lotoreya-shoulardan zerikib ketishdi...

Darhaqiqat, 2000-yil aprelida milliy mafkuraga bag'ishlab Oqsaroyda o'tgan jonli, oshkora muloqot yangilik tarafdorlari, istiqloq fidoyilari uchun uyg'onish onlari bo'ldi, desak yangilishmaymiz. O'ylaymizki, u mustaqillik davri islohotlari jarayonidan birmuncha uzoqda bo'lgan, shaxsiy manfaat g'amida yurgan minglab kimsalarga ogohlantirish vazifasini o'tadi.

Muloqotda ishtirok etar ekanman, bir noshir va olim sifatida suhbatda ko'tarilgan dolzarb masalalar yechimi xayolimdan hech nari ketmayapti. Yurt-boshimizning da'vatkor so'zlaridan keyin burch uchun ma'suliyat hissi, millat dardlariga daxldorlik tuyg'usi har birimizni faollikka, tashabbuskorlikka undadi. Istiqloq yillarida "Vatan tuyg'usi"dan bo'lak yoshlar ehtiyojini qondiradigan pishiq-puxta adabiyotlar yaratilmagani, kitoblarimizda milliy g'urur va iftixorni ko'tarishga undaydigan fikrlar kamligi, ilmiy asarlarda yot mafkura qoldiqlaridan iqtiboslar keltirish hollariga barham berilmagani kabi o'nlab kamchiliklarni tuzatish fursati allaqachon yetib keldi, deb o'ylaymiz.

«Hurriyat» gazetasi, 2000-yil, 16-avgust

Har qanday davlat va jamiyat hayotida notiqlikning o'rnini beqiyosdir. Negaki, islohotlar va tub burilish davrida milliy g'oyani odamlar ongi va qalbiga singdirishda ular yetakchi o'rin egallaydi. 2000-yilga kelib, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tamoyillari e'lon qilindi. Bu — davr talabi edi, u xalq xohishi va jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqdi. "Milliy mafkura, — deydi Yurtboshimiz, — xalqning maqsad muddo-larini ifodalaydi, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi".

Darhaqiqat, mafkuraning hayotbaxsh kuchi, jozibasi, mo'jiza yaratish qudrati bilan jamiyatning barcha qatlamlari qalbi va ongiga ta'sir etmay qolmaydi. Bunda, albatta, ma'rifatning eng ilg'or qismi bo'lgan kuchli notiqlarning imkoniyatidan unumli foydalanish lozim. Chunki notiq - inson ruhiyati va tafakkuri olamiga ta'sir etuvchi noyob iste'dod sohibi hisoblanadi.

Qadimda so'z aytuvchi notiq — voiz, nutqi esa — va'z deb atalgan. Voizlik ma'rifatlilikni, qobiliyatni, va'z ayta olish iste'dodini, dunyoqarashi kengligini va albatta, yoqimli ovozni talab etganligi uchun bu vazifani hamma ham uddalay olmagan.

Kundalik hayotimizda matbuot, televideniye, radioning o'rnini bo'lakcha. Ommaviy axborot vositalari mamlakatda va jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni o'quvchi, tinglovchiga yetkazishda misli

ko'rilmagan ishlarni amalga oshirmoqda. Biz ijtimoiy-siyosiy axborotlarni operativ va istagan vaqtda OAV lardan olmoqdamiz. Bunday axborotlar qiziqarli, maroqli va nufuzliligi bilan alohida qiziqish uyg'otadi: taniqli olimlar, jurnalistlar, davlat va jamoat arboblari fikr almashadilar.

Sosiologlarning tadqiqotlariga ko'ra, odamlar bilan jonli suhbat, yuzma-yuz muloqotlar OAV ga qaraganda ikki barobar ko'proq ta'sir kuchiga ega. Matbuot, televideniye, radio bugungi siyosat va ijtimoiy turmush voqealari to'g'risida ilk yangi axborotni beradi. Notiq esa bevosita tinglovchilar qalbiga ta'sir ko'rsatadi.

Notiq so'zining qudrati nimada? **Birinchidan**, auditoriyada tinglash qulay bo'lib, u jonli, maqbul tarzda chqish qiladi. **Ikkinchidan**, notiqqa savol bilan murojaat qilsa bo'ladi. **Uchinchidan**, ochiq muloqotdan keyin o'rtoqlaring bilan fikr ayriboshlash imkoni tug'iladi. **To'rtinchidan**, tinglovchi masalaga loqayd munosabatda bo'lmaydi, nimagadir qo'shiladi, nimagadir shubha bildiradi, kim bilandir munozara qiladi, o'zi savollar qo'yib, unga javob izlaydi. Turgan gapki, bu usul milliy istiqlol g'oyasini odamlar ongi va qalbiga singdirishning eng oson, foydali, mustahkam yo'li sanaladi.

Yaxshi notiqning fazilati ko'p. U, avvalo, tinglovchilarni ma'rifatli qiladi, tarbiyalaydi, g'oyaviy-siyosiy bilimni oshiradi, o'z navbatida istiqlolimizni yanada mustahkamlashga, yot g'oya va yot unsurlardan himoya qilishga undaydi. Loqaydlik kasalligidan qutulib, faol shaxsga aylanishiga da'vat etadi.

Shuni qayd etish joizki, notiq biron mavzu yuzasidan yetarli axborotga ega bo'lish uchun tegishli kutub-

xona kataloglari, bibliografiyalar, ilmiy yordamchi, tavsiyanoma, ma'lumotnoma, lug'atlarga murojaat qilgani ma'qul. Har qanday nutq, suhbat isbotlilik xususiyatiga ega bo'lmog'i kerak. Isbot, bu — haqiqatga olib boruvchi yo'ldir. Dalil esa isbotning eng kuchli quroli.

Buyuk Gyote raqamlar dunyoni boshqarmaydi, biroq ular dunyo qanday boshqarilayotganligini ko'rsatib turadi, degan edi. Har qanday notiq dalolatlarga tayanib mulohaza yuritadi. Albatta, raqamlar bir-biriga bog'lansa, tinglovchilar zerikmaydi. Quruq dalillarning o'zi hech narsani isbotlamaydi. Uning ilmiy tahlili berilgandagina u haqiqatni aniqlashning qudratli vositasiga aylanadi. Faktlarni tanlashda tarafkashlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Notiq yutuqlarimizni qayd etish bilan birga, kamchilik, xatolarimizni ham qayd etib, kelajakni o'ylagan holda gapirishdan charchamasligi lozim.

Ba'zida duch kelgan raqamni ishlatavermay, ularning eng xarakterlilarini tanlay bilish, qiyoslash va odamlar ongiga obrazli qilib yetkazish talab qilinadi. Bunday obrazli ifoda odamlarda aniq tasavvur uyg'otadi. Notiq ana shunday misollardan ham to'plab borishi lozim.

Shu o'rinda yana bir muhim masala — nufuzli manbalarga murojaat qilish zarurligi xususida gapirib o'tishni lozim, deb bilamiz. Bu manbalar — taniqli olimlarning dono fikrlari, hujjatlar, qonunlar, fuqarolik huquqlari, guvohlarning dalillaridir. Eng ko'p uchraydigan usul, albatta, iqtibos (sitata)lardan foydalanishdir. Masalan, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Behbudiy, Avloniy va boshqa allomalarimiz fikrlari, Amir

Temur, Maxatma Gandi, Islom Karimov kabi davlat arboblari yo‘l-yo‘riqlarini nutqingizda unumli ishlat-sangiz, foydadan xoli bo‘lmaydi. Ammo iqtiboslarni suiiste‘mol qilmaslik kerak. Nega deganda, tinglov-chilarda voizning o‘z mustaqil fikri yo‘q ekan, degan xulosa tug‘iladi.

Uzoqqa bormay Yurtboshimizning notiqlik mahoratini ko‘zdan kechirsak, biz o‘zimizga o‘rnak bo‘lgulik ko‘pdan-ko‘p saboqlar olamiz. Prezidenti-miz taniqli davlat va siyosat arbobi bo‘lish bilan birga, ajdodlarimizning bebaho merosini, jahon faylasuflari ijodini, xalqimizning hikmatlarini, eng muhimi — hayotni yaxshi bilganidan nutqlari yangi fikr va yangi g‘oyalarga boydir.

Nutq iloji boricha ta‘sirchan chiqishi uchun kitobiy so‘zlar o‘rniga jonli, jozibali, o‘q bo‘lib otiluvchi so‘zlarni ko‘proq ishlatishni tavsiya etamiz. Qadimgi yunon faylasufi Platon aytganidek, “Har qanday nutq go‘yo jonli mavjudot singari tuzilishi — uning jismi, boshi va oyoqlari bo‘lishi, o‘z navbatida gavdasi bilan qo‘l-oyoqlari bir-biriga mos kelishi va bir butunni tashkil etishi kerak.

“O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat bo‘ladi” dedi yurtboshimiz. Ha o‘n bir yil ichida milliy o‘zlikni anglash, milliy g‘ururni uyg‘otish sari dadil qadamlar tashlandi. Ammo hali o‘quvchi -yoshlar, talabalar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning ongiga ona-Vataniga, xalqiga va uning bugungi bunyodkorlik ishiga ehtirom bilan qarash ruhini tarbiyalashga erishish uchun ko‘p mehnat qilishimiz kerak bo‘ladi.

Ziyolilar, ilm, ma‘rifat, ijod ahli hamisha xalq dardiga sherik bo‘lishi, zahmatkash elimizni faollikka

undashi, yoshlarni yot g'oyalardan asrashi lozim. Odamlarni bosh g'oya atrofida jiplashtirishda notiqning ham o'tkir so'zi, mo'jizakor da'vati salmoqli bo'ladi. Yaxshi notiqning yuragi tinglovchining yuragini hayajonga soladi, fikri fikriga cho'g' tashlaydi. Bugungi g'oyalar kurashi avj olgan, istiqlolni asrab-avaylash zarur bo'lgan sharoitda kuchli notiqning fidoyiligiga ko'p narsa bog'liq.

Yoshlarning mard, vatanparvar, jasoratli, iymonli bo'lishga undashda, «xalqning dengiz, to'lqin, kuchga» aylanishida ajoyib notiqlarımız ham yurtboshimiz yonida turib munosib hissalarini qo'shadilar, degan umiddamiz.

2000-yil 10-aprel

KUNCHIQAR YURT MO'JIZASI

TAJRIBA

So'nggi yillarda Yaponiya — O'zbekiston do'stlik aloqalari tobora kengayib, rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, ma'rifiy sohalarda bir qator shartnomalar imzolandi, foydali tadbirlar amalga oshdi. Masalan, 1997-2000-yillarda Xalqaro hamkorlik bo'yicha yapon agentligi /JICA/ Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda O'zR Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida davlat boshqaruvi tizimi, sanoat siyosati haqida qiziqarli ma'ruzalar hamda suhbatlar uyushtirdi. Dunyoga dong'i ketgan

mazkur agentlik «Odamlar, mamlakatlar va qalblar uchun» shiori ostida ish olib boradi. Men ushbu foydali uchrashuvlarda ishtirok etdim.

Barchaga ma'lumki, ikkinchi jahon urushi Yaponiyaga misli ko'rlmagan talafotlar yetkazdi. Yapon xalqi qiyinchiliklarni mardonavor yengib o'tdi va 70-yillarga kelib jahonning eng yetakchi mamlakatlariga qo'shilib oldi. Boshqa bironta xalq inqirozdan taraqqiyot yo'liga bu qadar qisqa vaqt ichida chiqib olganligini hech eslay olmaymiz.

Xo'sh, Yaponiya taraqqiyot yo'li nimadan iborat? Uning o'rganadigan jihatlari bormi? Ha, bor albatta. Keling ana shu omillar haqida birma-bir to'xtalib o'taylik. Avvalo, 50-yillardayoq Yaponiyada modernizatsiya jarayonlari aniq, pishiq-puxta olib borildi. Davlat boshqaruv tizimida eski uslublardan voz kechilib, yangicha g'arbona usullarga osongina o'tildi. Agar shunday qilinmasa, AQSh, Angliya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarga yetib olish, iqtisodda burilish yasash birmuncha qiyin kechardi. Yaponlar G'arb va Sharq tajribasini omuxta qilgan holda o'z modellarini tezlikda yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Ming yillar mobaynida hukm surgan imperator hokimiyati o'rniga dunyoviy demokratik tizim o'rnatildi.

1945-yilda urush tugagandan keyin haqiqiy islohotlar davri ildam boshlanib ketdi. Yirik konsernlar, birlashmalar tarqatib yuborildi. Qishloq xo'jaligi, maorif, qonunchilik tizimlarida chuqur islohotlar dadil boshlandi. Siyosat dindan ajratildi. Demokratiya, ya'ni xalq hokimiyatiga keng imkoniyatlar eshigi ochib berildi. Mamlakat Konstitutsiyasi qayta ko'rib chiqilib, 1947-yilda u yangitdan qabul qilindi. Xalqning oliy hokimiyati tiklanishi va inson huquqlari hurmat qilinishi konstitutsiyaning bosh

tamoyiliga aylandi. Imperator hokimiyatidan xalq suverenitetga o'tilishi — Yaponiya tarixida buyuk inqilobiy o'zgarish edi, albatta. Bu holat yapon millatining o'zini ko'rsatishi, o'z iste'dodini to'la namoyon etishiga imkon yaratdi.

1947-yildan boshlab Yaponiya tinchlik siyosatini mahkam ushladi, har qanday urushlarga qarshi turdi. Chunki Yaponiya iqtisodini tezroq oyoqqa turg'izish asl maqsadga aylangan edi. Avvalo qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati vazifalarining teng taqsimlab berilgani va ijrosi ta'minlangani barcha tizimlarning aniq maromda ishlashiga katta yordam berdi.

Shu o'rinda Konstitutsiya bilan bir vaqtning o'zida 1947-yilda kuchga kirgan «Davlat xizmatchilari to'g'risidagi qonun»ning ahamiyatini alohida qayd etib o'tish joiz, deb bilamiz. Bu qonun ma'muriy va davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarning xalq, millat oldidagi mas'uliyatini ko'tarishga xizmat qildi. Natijada korrupsiya, poraxo'rlik, aldanchilik yo'llari tamoman berkildi.

Yaponiyada parlament — mahkama tipidagi tizim ishlaydi. Parlament vakillik palatasi va maslahatchilar palatasidan tashkil topgan. Vakillik palatasiga 500 deputat to'rt yil muddatga saylanadi, bu palata tarqatib yuborilishi ham mumkin. Maslahatchilar palatasiga 252 deputat 6 yilga saylanadi, deputatlarning yarmi har 3 yilda qayta saylanadi, biroq tarqatib yuborilmaydi. Vakillik palatasi mavqei yuqori bo'lib, qonunlarni chiqarishda, budjetni tasdiqlashda, bosh vazirni tayinlashda ularga katta huquqlar berilgan.

Sud hokimiyati uch tizim — oliy, apellatsion va mahalliy suddan tashkil topgan. Yaponiyada oliy sud,

8 apellyatsion, 50 oilaviy, 448 ish yurituvchi sudlar ishlab turibdi.

Vazirlar Mahkamasini /ijro etuvchi hokimiyat/ bosh vazir va 20 vazirdan iborat mahkama boshqaradi. Vazirlar Mahkamasi parlament oldida mas'uldir. Vazirlarni bosh vazir tayinlaydi. Vazirlar Mahkamasi mamlakat tashqi siyosatini olib boradi, xalqaro shartnomalarni tuzadi, amnistiya haqida qarorlar qabul qiladi, vakillar palatasini tarqatib yuboradi.

Yangilik jihati shundaki, hukumat tizimida, vazirliklar qoshida o'z faoliyatini va har bir kadrning xizmat vazifasini nechog'liq bajarishini nazorat qiluvchi mustaqil kengash va boshqarma bo'ladi. Vazirlik kotibiyati, departament va byurolarda o'rnashgan mazkur nazorat organlarining har birida 10 tadan xodim ishlaydi.

Yaponiyaning o'zini-o'zi boshqarish tizimini o'rganish ham foydadan xoli bo'lmaydi. Mamlakatda 47 prefektura, 3232 shahar, posyolka va qishloq jamoasi, 23 maxsus rayon bor. Prefektura gubernatori 30 yoshdan, munisipal meri 25 yoshdan sayлана oladi. O'zbekistondan farqli tomoni shuki, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga birqator qo'shimcha huquqlar, ya'ni budjet, kadrlar, qurilish masalalari bilan shug'ullanishga ruxsat berilgan.

XX asrning oxirgi ellik yili ichida mamlakatning ma'muriy tizimida 1962, 1981-yillarda chuqur islohotlar o'tkazildi. Davlat xizmatchilarini qayta tayyorlash tizimining yo'lga qo'yilishi — eng foydali, samarali islohotlardan bo'ldi, desak yanglishmaymiz. Unga ko'ra, xodimlar kategoriyasiga qarab o'nlab yo'nalishlarda, turli muddatdagi kurslarda muntazam o'qib turishadi. Masalan, 1950-yildan buyon markaziy

organ, vazirlik hamda mahalliy davlat organlari xodimlari to'rt kundan boshlab ikki oygacha davlat xizmatchilari ishlari palatasi tomonidan o'qitilmoqda. Palata yozma imtihon va suhbat tariqasida kurslarga qabul qiladi, uni a'lo baholarga bitirganlar yuqoriroq lavozimlarga demokratik asosda ko'tariladi. Bu mexanizmning yaxshiligi shundaki, xodimning bilimi, malakasi, shaxsiy xizmatlariga qarab lavozimga ko'tarish hech qachon tanish-bilish, oshna-og'aynigarchilik va korrupsiyaga yo'l bermaydi. Davlat xizmatchilari ishlari Palatasi kurslarni bitirgan kadrlarning ro'yxatini parlamentga va hukumatga muntazam ravishda yuborib turadi.

SABOQLAR

O'zbekistonda jamiyatning bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tish jarayoni davom etmoqda. Bu jarayonning ildam borishida shaxs, jamiyat va davlatning o'ziga xos o'rni, oldiga qo'ygan vazifalari bo'ladi. Davlat bosh islohotchi vazifasini sidqidildan bajarib kelmoqda, jamiyat va shaxsning o'zini namoyon etishida ham ijobiy siljishlar kuzatilmoqda... Boshqa mamlakatlarda bu murakkab jarayon qanday kechdi deb so'rashingiz mumkin. Albatta, har bir davlat inqilobiy o'zgarishlar davrida o'z tarixiy tajribasi, an'alariga tayanib ish ko'radi. Shunday qilingandagina islohotlar yaxshi samaralar keltiradi. O'zbekistonda ham milliy o'ziga xoslik, sharqona urflarga amal qilinmoqda. Xo'sh, Yaponiyada bu borada qanday ishlar amalga oshirildi, degan haqli savol tug'iladi.

Agar Yaponiyaning so‘nggi ellik yillik tarixini ko‘zdan kechiradigan bo‘lsak, davlat bir tizim /ming yillik imperator tizimi, 250 yillik dunyodan uzilib qolish rejimi/dan butunlay voz kechib, demokratik bozor iqtisodi yo‘lini tanlab xato qilmaganining guvohi bo‘lamiz. Bunda davlat olib borgan oqilona to‘g‘ri siyosat muhim ahamiyat kasb etdi. Davlat jamoat tashkilotlariga, kichik va o‘rta biznesga, moliyaviy institutlarga tayandi va ularga yetarli sharoit yaratib berdi. Davlatning xalqqa ishonch bildirib hamkorlikda ish olib borgani eng muhim yutug‘i bo‘ldi, albatta. Bu psixologik holat ishlab chiqarishda, xususan, sanoat siyosatida yetakchi omilga aylandi. Sanoatda O‘zbekistonda bo‘layotganidek bosqichma-bosqich islohotlar olib borildi. Ularni ma‘lumot tariqasida birma-bir sanab o‘tamiz.

1945-55-yillar urush yetkazgan zararlarni tuzatish va o‘z sanoati poydevorini yaratish davri bo‘ldi. Dastlab eng samarali sanoat sohalari bo‘lgan ko‘mir va qora metallurgiya moliyalashtirildi. 1949-yildan boshlab dengiz transporti, elektroenergetika, sintetik tola va mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarishga e‘tibor kuchayib bordi.

Mamlakat sanoat siyosatining elementlari va mexanizmlari uzoq muddatga mo‘ljallab ishlab chiqildi. Malaka, tartib-intizom, texnologiya, kadrlar tayyorlash, kredit-moliya, soliq sohalarida birin-ketin chuqur islohotlar o‘tkazildi. Hatto Amerika, Germaniya singari rivojlangan mamlakatlar tarixida ham bunchalik keng islohotlar qilingan emas. Yaponiya asl maqsadiga erishish, jahon iqtisodida yo‘qotib qo‘ygan mavqeini yana tiklash uchun kechayukunduz jon kuydirdi: maxsus qonunlar ishlab chiqdi,

ma'muriy rahbarlik tizimini butunlay o'zgartirdi, sanoatning eng zarur foydali sohalariga chetdan investitsiyalarni ko'plab jalb qilaverdi. Investitsiyalarni ham Yaponiya Taraqqiyot Banki orqali yuborib, banklarini oyoqqa turg'izdi, shular hisobiga sanoatda soliqlar miqdori kamaya bordi, subsidiyalar ham berib borildi. Siyosiy jihati o'rganib chiqilgandan so'ng sanoat korxonalari moliyalashtirildi.

1955-1973-yillarga kelib yuqoridagi maxsus tadbirlar katta foyda keltirib, yuqori darajada iqtisodiy o'sish davri ko'zga tashlana boshladi. Ayniqsa, og'ir va kimyo sanoati ildam rivojlandi. 1955-yilda Yaponiya GATToga a'zo bo'lgach, 1960-yilda tashqi savdoda erkinlashtirish dasturi qabul qilindi. Xorijiy mamlakatlarga ish o'rganish uchun minglab mutaxassislar yuborildi. Bu davrga kelib sifatga nazorat haddan ziyod kuchaydi, marketing tizimi yo'lga qo'yildi. Natijada yangi bozorlarni o'zlashtirish va mahsulot chiqarish hajmi keskin ko'paydi. Eksport bo'yicha DJETRO kengashi ish boshlagandan keyin eksport ham davlat tomonidan moliyalashtirib borildi, soliq miqdori esa pasaydi. 70-yillar o'rtalarida ilg'or texnologiyani amalda qo'llovchi ilmiy markazlar tashkil etilib, ular ishi har jihatdan rag'batlantirib borildi.

1973-1998-yillarda yangi bosqich boshlandi. «Temir» iqtisod davridan» «integral sxemalar iqtisodi»ga jadal o'tildi. Bu Yaponiya taraqqiyotining debochasi edi. Masalan, 1 tonna po'latning qo'shimcha qiymati 100 ming iyenga baholansa, 1 tonna integral sxema 100 mln.dan 3 mld. iyengacha baholanadigan bo'ldi. Shuning uchun rangli metallurgiya, alyumin sanoati, kemasozlik to'la davlat nazoratiga olindi.

Endi Yaponiya Osiyo mintaqasi davlatlariga o'z investitsiyalarini jalb eta boshladi. O'z navbatida, yapon jamiyati sharoit taqozosiga ko'ra davlat-ma'muriy, davlat moliyasi, ijtimoiy kafolat, iqtisod, moliya ta'lim tizimida yangi-yangi islohotlarni aniq maromda o'tkazishga kirishdi.

Yaponiya saboq olish, tajriba oshirishdan hech charchamadi. Qarangki, davlat xizmatchilari yuqori malakaga ega bo'lishiga qaramay, AQShning Garvard, Kolumbiya, Kaliforniya, Konel, Stenford, Michigan, Nyu-York, Janubiy Kaliforniya, Jons Xopkins, Taft, Pensilvaniya, Prinстон /jami 17 o'quv yurti/, Angliyaning Kembrij, Erinburg, London, Lankastr, Fransiyaning institusional siyosat, 1-Parij, 2-Parij, Germaniyaning Frayburg, Gettengen, Kanadaning Gerf universitetlariga uzoq muddatli stajirovkaga har yili yuborib turiladi. Shuningdek, Avstraliya, Shveysariya, Kanada, Yangi Zelandiya, Shvetsiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Malayziya kabi 30 dan ziyod davlatlarning hukumati qoshidagi tashkilotlarga qisqa muddatli xizmat safarlari muntazam uyushtiriladi. Kadrlar o'z vataniga qaytib kelgach, boshqaruv tizimiga va ishlab chiqarishga jahon peshqadam davlatlari yangiliklarini dadil joriy etadilar. Hukumat mazkur porloq maqsadlarga mablag'larni hech ayamay sarflaydi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyaning juda boy, qiziqarli ish tajribasini istaganicha o'rgansa arziydi. Yaponiya mo'jizasini Yevropada ham, Amerikada ham siyosatchilar, iqtisodchilar katta qiziqish bilan o'rganishmoqda. O'zbekistonda ham Yaponiya tajribasiga ehtiyojni sezish qiyin emas. Chunki Osiyo qit'asidagi ikki xalqning psixologiyasi, mehnatga

munosabatida ko'plab o'xshashlik jihatlari mavjud. Nazarimda, 1997-yildan buyon O'zR Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida iste'dodli yosh rahbar kadrlarga yapon mutaxassislarining berayotgan saboqlari yaxshi samaralar bera boshladi.

1999-yilning may oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimizga tashrif buyurgan Yaponiya tashqi ishlar vaziri Masaxiko Koumuro rahbarligidagi delegatsiyani qabul qildi. Kunchiqar mamlakati tashqi ishlar vazirining tashrifi Yaponiya hukumatining O'zbekiston bilan aloqalarini kengaytirishga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat beradi. O'sha kunlari Toshkentda Yaponiyaning xalqaro hamkorlik bo'yicha agentligi /JICA/ ning Markaziy Osiyo mintaqaviy vakolatxonasi ochildi. JICA 72 davlatda faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa-da, Toshkentdagi vakolatxona MDHda yagonadir. 2002-yil 28-31-iyulida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Yaponiyaga tashrif buyuradi. Islom Karimov Bosh vazir J. Koidzumi va imperator Akixito bilan uchrashadi. Tokiyoda jami 14 ta xujjat imzolaniib, o'zaro munosabatlarning huquqiy qoydevori yaratiladi. Safar chog'ida muhim tarixiy voqea yuz beradi: O'zbekiston 2002 yil mart oyida AQShning strategik hamkori deb e'lon qilingan bo'lsa, endilikda dunyoning yana bir qudrati davlati Yaponiya bilan do'stlik, strategik sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi qo'shma bayonotga imzo chekiladi.

Ha, o'zbek va yapon xalqlari o'rtasidagi amaliy hamkorlikning yangi, istiqbolli davri boshlandi.

*«Xalq so'zi» gazetasi,
2002-yil 28-iyul.*

XITOIY ADABIYOTI VA TARIXIGA QIZIQAMAN

Ma'lumki, qadimgi Xitoy tarixi va madaniyati, o'ziga xos turmush tarzi, boy an'analari ko'pchilikni o'ziga rom qilib keladi.

Shular qatori menda ham mamlakatning o'tmishi va bugungi kuniga qiziqish kuchlidir. Bu bolaligimda emas, balki yaqin yillarda paydo bo'ldi. Men 1976-yilda maktabni tamomlagach, Toshkentga kelib ToshDU (hozirgi O'zMU) jurnalistika fakultetiga o'qishga kirdim. Niyatim — jurnalist bo'lib, o'zim yashayotgan o'lka — qadim Nurota tarixini o'rganish, to'pori, bag'rikeng odamlari taqdirini imkon qadar tasvirlash edi, xolos.

Falakning gardishi meni gazetachi emas, noshirga aylantirib qo'ydi. Buyuk dargoh G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyatida ishlagan paytimda xizmat taqozosiga ko'ra "Jahon adabiyoti durdonalari", "Do'stlik kutubxonasi" turkumlarida o'nlab tarjima kitoblarni tahrir qilib, nashr etishimga to'g'ri kelgan. Jamoamiz rahbari taniqli shoir Erkin Vohidov bo'lib, ijodiy xodimlar orasida respublikaga dong'i ketgan adib, tarjimon va shoirlar Xayriddin Sultonov, Erkin A'zamov, Nosir Fozilov, Hasan To'rabekov, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf bor edi. Shu bois, ishimiz zavqli, mazmunli va albatta, sharaflidir.

Badiiy tarjima sohasida bir savol meni mudom qiynardi: nega endi Amerika, Yevropa, hatto Afrika xalqlari adabiyoti targ'ib qilinadi-yu, yon qo'shnimiz bo'lgan buyuk Xitoy adabiyoti ro'yxatlarda yo'q. Va nashriyat kutubxonasini boshdan-oyoq ko'zdan

kechirib chiqdim. 50-yillardan keyin o'tgan 30 yil mobaynida O'zbekistonda Xitoy adabiyotidan bironta kitob nashr etilmagan ekan. Men Xitoyning bugungi kundagi siyosati, ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida hech qanday ma'lumot ololmay boshim qotdi. Moskvada ham faqat 1980-yillarga kelib, "Nauka" nashriyotida bir-ikkita ilmiy-ommabop kitoblar chiqa boshlagan ekan, xolos. Bu "bo'shliq"ni to'ldirish koni foyda edi. Shuning uchun negadir menda Xitoy tarixi va adabiyotiga kuchli qiziqish uyg'ondi. Tunu kun adabiyotlarni varaqlash va tarjimaga asar tanlash bilan ovora bo'ldim. Jahon adabiyoti klassigi Lao She ijodi menda katta taassurot qoldirdi. Ko'nglimga yaqin adib ekan. Vaqtni o'tkazmay uning ayrim kitoblarini tarjima qilishga kirishdim.

Dunyoda Misr, Yunon, Xitoy sivilizatsiyasi rivojidan xabarimiz bor. Ana shu uch buyuk antik tarix, madaniyatning sir-sinoatlari hali chuqur o'rganilmagan. Xitoy jahondagi eng qadimgi va eng ulkan davlatlardan biridir. Xitoy haqidagi eng ko'p ma'lumot N.Y. Bichurin (Nakinf) kitoblarida mavjud. Olimning Xitoy, Tibet, Mo'g'ulistonning tarixi va geografiyasiga oid oltita kitobi chop etilgan. Asli millati chuvash bo'lgan N.Ya.Bichurin 1807-1821-yillarda rus diniy missiyasining boshlig'i lavozimida Pekinda istiqomat qilib, xitoy tili, adabiyoti va tarixini mukammal egalladi. Uning hududimizning qadimiy tarixiga doir "Qadimgi davrda O'rta Osiyoda xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami" 1950-1953-yillari Moskvada qayta nashr etildi. Ayni damda ulkan mamlakatda 1,2 milliard aholi istiqomat qiladi. Nega biz qadimgi yunon, hind afsonalarini o'rgangan holda, Xitoy mif va afsonalarini mutolaa qilmas

ekanmiz? Axir, ota-bobolarimiz xitoy tarixiy manbalariga juda ko'p murojaat qilishgan-ku. Deylik, Sima Syanning (mil.av.145-86) "Tarix" — "Shi Szi" — ko'p jildlik kitobi (jami 130 bob) miloddan oldingi tariximizni o'rganishda muhim qo'llanma vazifasini o'tagan. Unda Farg'ona (Davan) davlati, qadimiy xalqi hayoti ham yoritiladi. 1959-yili "Shi Szi" 6 jildga yig'ilib, Pekinda chop etildi, ingliz, fransuz tillariga o'girildi, rus tilida Moskvada 1972-75, 1984-86-yillarda bosildi. Ban Gu (32-92), Fan Xua (398-445), Li Yan-Shu (595-678) kitoblarida ham O'rta Osiyo, Xorazm, Sharqiy Turkistonning tarixi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Eramizdan oldin VI-V asrlarda vujudga kelgan Konfutsiylik mafkurasi ham o'rganishga loyiq. Unga ko'ra, har bir kishi jamiyatdagi o'rini bilsin: podsho-podsholigini, ota-otalik, bola-farzandlik burchini to'liq ato etsin. Eramizdan oldingi 108-yillarda ochilgan "Buyuk ipak yo'li" faoliyati ham dunyo jamoatchiligini qiziqtirib kelmoqda. "Qadimgi Xitoy miflari" kitobi ("Mifi Drevnego Kitaya") ning esa qimmatli ulardan ham yuqoriroqdir. Bu o'lmas kitobni varaqlab chiqar ekanman, "O'zbek miflari" yoki "Turkiston xalqlari miflari" nomli ensiklopedik nashrlarga ehtiyoj naqadar kattaligini his qildim. Xitoyda bir necha ming yillik tarix, ma'naviy boyliklari, muhimi yozuvi ko'z qorachig'idek ardoqlab saqlanganini bilib, ularga juda havasim keldi.

Vaqt masalasi cheklanganligi sababli ko'nglimga yaqin yozuvchi — Lao She (1899-1966) asarlarini o'girdim. Moskvada Lao Shening o'nlab asarlari, "Saylanma"si bosilib chiqqan. 1994-yilda adibning "Beva ayol qissasi" kitobini o'girib, 50 ming nusxada

nashr ettirdim. Kitob juda tez orada tarqalib ketdi. Yozuvchi ayollarning murakkab qismatini mohirona ochib beradi... Shundan keyin Lao Shega-olamshumul shuhrat keltirgan “Mushuklar saltanati” (“Zapiski o Koshachem gorode”) satirik romanini tarjima qilishga kirishdim. Roman “izm” mafkuralarining mamlakat va odamlar taqdiriga salbiy ta’siriga bag’ishlangan. Unda jamiyat qatlamlarining gurkirashi va so’nishi — tanazzuli sodda, ishonarli yoritiladi. “Katta Chayon — katta avlod, Kichik Chayon — kichik, yosh avlod o’rtasidagi munosabatlarning uzilishi, ta’lim, armiya, kutubxona, hokimiyat tizimidagi buzilishlar yorqin bo’yoqlarda qiziqarli tasvirlanadi. Kitobga O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Ne‘mat Aminov so‘zboshi yozdi. Xullas, “Mushuklar saltanati” — bashorat etuvchi kitob. Unda giyohvandlikning jamiyat tabaqalari orasida keng tarqalishi, u — foyda olish, odamlarni va mamlakatlarni zulmat qa’riga tortish vositasi ekanligi oshkora ochib beriladi. Shu bois, “Mushuklar saltanati” kitobi — ogoh etuvchi asar hamdir. 1996-yilda mazkur asar Toshkentdagi “Yozuvchi” nashriyotida o‘zbek tilida bosilib chiqdi. Hozir meni bir ijodkor sifatida kitob haqidagi xolis mulohazalar qiziqtiradi. Bular keyingi tarjima kitoblarga turtki bo‘lsa ajab emas.

Endi ijodiy rejalarim haqida ikki og‘iz. Navbatdagi rejam — Xitoy adabiyoti tarixi haqida ilmiy-ommabop tadqiqotlar yozishdir. Hozirga qadar ancha-muncha kitoblarni o‘qib chiqdim, materiallar to‘pladim. Yana bir orzuim — qadimiy va navqiron Xitoy mamlakatida bo‘lish, uzunligi 5 ming kilometr ga cho‘zilgan purviqor Xitoy devorini va boshqa afsonaviy joylarni

borib ko‘rish. Agar imkoniyat tug‘ilsa, “Ipak yo‘li bo‘ylab: kecha va bugun” nomli kitob-albomni tayyorlab, nashr etish niyatidaman.

1997-yil 21-mart

«URJUZA YOKI 1326 BAYT TIBBIY O‘GIT»

So‘nggi paytlarda xalqimiz orasida tibbiy merosimizga, xususan, ibn Sino va ar-Roziyning asarlariga qiziqish kuchaymoqda. Zukko kitobxonlar taxminan o‘n asrlar muqaddam yaratilgan ushbu ganjinalarni sharhlar, izohlar bilan o‘qishga, ulardan kundalik turmushda foydalanishga orzumand. Kuzatishimizcha, Moskvada, Kavkazorti, Boltiqbo‘yi mamlakatlari, Almatida va Dushanbeda ilmiy-ommabop akademik nashrlar salmog‘i ko‘paymoqda. Bizda ham shunday ommabop nashrlarga ehtiyoj katta.

Ibn Sinoning «Urjuza» si — nodir asar. U «Tib qonuni» kabi murakkab tilda emas, balki sodda, tushunarli tilda yozilgan. Hatto ibn Rushd ustози, andaluslik mashhur tabibning uqtirishicha, «Urjuza» «Qonun» dan yuqori turadi. Shuning uchun «Urjuza»ga ko‘plab sharhlar bitilgan. Mazkur sharhlar orasida eng mo‘tabari ibn Rushdning «Qulliyot» sharhi bo‘lib, uning muqaddimasida «Urjuza» — tabobat ilmiga madhal, muqaddimadir, deydi. Chunki Ibn Sino «Qonun» ga o‘xshab bu asarida inson organizmida bo‘ladigan kasalliklarni ta’riflaydi, so‘ng ularni davolash yo‘llarini birma-bir bayon etadi.

«Urjuza» mundarijasi, kompozitsion qurilishi ajoyib. Buyuk tabib kitob boshidayoq tibni ilmiy va amaliy qismlarga taqsimlaydi. Ilmiy nazariy qismi ettita: tabiat — rukn (unsur), mizoj, xilt, a'zolar, ruhlar, quvvatlar, ishlar (fe'llar) hamda oltita: zurriyot — havo, yeyish va ichish, uyqu va uyg'oqlik, harakat va harakatsizlik, bo'shanish va bo'shanmaslik, nafsoniy harakatlardan iborat. Tibning amaliy qismi qo'l va dori bilan bajariladigan amallardir.

Endi «Urjuza»ni varaqlay boshlaymiz. Muallif rukn (unsur)lar haqida gapira turib, shunday yozadi: «24. Shuiar haqida Buqrotning so'zi to'g'riki, ular—suv, olov, tuproq va shamol (havo)dan iboratdir. 25. Bu haqda Buqrotning dalili shuki, qachon jism halok bo'lsa, u noiloj qayta o'sha (to'rt ruknga) aylanadi». Unsurlardan keyin mizojning quvvatlariga o'tiladi. «29. (Ular) issiq, sovuq, quruq va yumshoq (ho'l)dan iboratki, u ushlagan kishining sezgisiga yetadi... 32. Issiqlik olovda va havoda, sovuqlik esa tuproqda, suvda bo'ladi. 33. Quruqlik olov bilan tuproq o'rtasida, ho'llik esa suv bilan bulut (havo) o'rtasida».

O'z navbatida, ibn Sino birgina mizojning biz bilgan va bilmagan to'qqizta turini bayon etadi. Fasllar mizoji shundaki, qish (fasli)da balg'am kuchayadi, bahorda esa qon qo'zg'aladi, yoz (fasli)da safro bo'lsa, savdo (qora o't) kuz fasli uchun xosdir.

Qayd etish lozimki, shifokorlar va bemorlarning ayrim qismi bunday ma'lumotlarga ega emaslar. Unsurlar va mizojlarni bilmaslik oqibatida davolashda birmuncha qiyinchilik tug'iladi. Deylik, yosh mizoji, erkak va ayollar mizoji, teri rangiga qarab mizojni

aniqlash, mo'yning ranglari (mo'yi oq kishi sovuq, mo'yi qora kishi issiq, mo'yi qizg'ish malla mizoji mo'tadil bo'ladi), ko'z ranglari va h.k. bayoni kitobxonlar hayotida ko'p asqotadi, deb o'ylaymiz.

«Urjuza»ning ikkinchi qismi amaliy qism bo'lib, u 772-1326 - tibbiy o'gitlarni qamrab oladi. Unda inson uchun eng zarur tadbirlar (taom yeyish, ichimlik, uyqu, badantarbiya) bayon etilgandir. Ayniqsa, «Kasaldan yangi turgan kishining tadbiri» hamda dorilar (yumshatuvchi, yaralarni tozalovchi, tomirlar og'zini ochuvchi, og'riqni to'xtatuvchi)ga oid boblar zarur ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rganimizdek, mizojlarga bog'liq turli kasalliklar bayoni ham qiziqarlidir. Ibn Sino qonli, safroli, balg'amli, savdoga tegishli kasalliklar muolajasini ishonarli tilda tushuntirib beradi. Tibbiy amaliyotning ikkinchi bo'lagi — tomirdan qon olish, go'shtni tilish, issiq suyakni o'z o'rniga qo'yish va kitob oxirida (1321-1326-raqam) suyak chiqqanini davolash boblarigacha hammasi juda foydali, nodir o'gitlar sanaladi.

Ana shu nozik jihatlarni hisobga olganda, «Urjuza» tibbiyot xodimlarigagina emas, balki maktab o'quvchilari, o'qituvchilar, keng xalq ommasiga mo'ljalangan zarur qo'llanmadir. Uni sharqshunos olim Shoikrom Shoislomov ko'p yillar muqaddam tarjima qilgan edi.

«Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o'git» qayta ishlagan nashri 1999-yilda Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyotida «Buyuk tabiblar maslahati» turkumida chop etilgan.

1999-yil 27-avgust

BIR XONADON TAQDIRI

Gabriel Garsia Marques kolumbiyalik dong‘i ketgan adib. 60-yillar oxirida “Yolg‘izlikning yuz yili” romani bosilib chiqdi-yu, nomi dunyoga mashhur bo‘lib ketdi. Bu ajoyib asar mehr-shafqat tuyg‘usidan bebahra bo‘lgan, johillikka to‘lib toshgan OLAM va xudbinlashgan ODAMZODning so‘nggi yuz yillik qismatini to‘laqonli qamrab oladi. O, bu ayanchli qismatni kitob varaqlarida o‘qish va yurak-yurakdan his qilish naqadar azob-uqubat ekanini tushunsangiz edi?!

Ming nadomatlar bo‘lsinkim, baxtsizligiga insonning o‘zi aybdor bo‘lar ekan. Ma‘naviy qashshoqlik, madaniyatsizlik, beparvolik, tanballik, manqurtlik har bir kishini shu ko‘yga soladi. Alal oqibat, bu dunyoi bevafoada nomi-nishoni qolmaydi — abadulabad izsiz yo‘qoladi. Ammo kutilmaganda Buendialar xonadonida yakkayu yagona voris, ya‘ni sog‘lom, barkamol vakil dunyoga keladi. Ugina oilasi va o‘zini o‘rab turgan muhitni asr botqoqligidan, zulmatdan qutqarishi, yorug‘lik va farovonlikka boshlashi mumkin. Faqat ugina bir zamonlar lo‘lilar qishlog‘iga kelganida pergament qog‘oziga yozib bobokaloniga topshirilgan bashorat ma‘nosini yechish qudratiga ega!

Kitob sahifalarida o‘qiymiz: “Aureliano taajjub yoki qo‘rquvdan emas, balki ayni shu lahzada Melkiades qo‘lyozmalari siriga kalit topganidan qotib qoldi. Qo‘lyozmalar epigrafi yaqqol ko‘z oldiga keldi: “Avlodning birinchi vakilini daraxtga bog‘lab

qo'yishadi, avlodning so'nggisini chumolilar yeb bitiradi".

Buendialar xonadonining halokati yoxud insoniyat tarixining tanazzuli sababi qayerda, deb o'ylaysiz. Nega bunday bo'ldi? Agar G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1990-yilda chop etilgan "Yolg'izlikning yuz yili" romanini (N.Qobul va A.Jo'raboyev tarjimasini) sinchiklab o'qisangiz, yuqoridagi savollarga javob topasiz. Saboq bergulik asarning o'zbekcha tarjimasini muharriri va bir noshir sifatida sizlarga shunday degim keladi. "Roman yolg'izlikka-zavolga yuz tutgan bir oilaning fojiali taqdiri orqali insoniyat tarixining so'nggi yuz yilligiga doir manzaralarni chizib beradi. Yolg'izlik — ma'nadan qashshoq sivilizatsiya odamining atrof-olamdan uzilib qolishigina emas, odamning o'ziga-o'zi begonalashuvi hamdir; azaliy an'analarning, ota-bolalik, qarindoshlik, og'a-inilik munosabatlarining... yemirilishi oqibatida paydo bo'lgan ommaviy yolg'izlik, ommaviy loqaydlikdir".

Men ushbu xulosani kitobning so'nggi sahifalariga qo'shimcha qilib yozib qo'ydim. Aslida ham shunday. Markesning sehrli, boy olami bilan tanishuv menda chuqur taassurot qoldirdi. Adabiyotga, so'z san'atiga bo'lgan mehrim o'n chandon ortdi. So'z qudrati, yozuvchining mo'jiza yaratish san'atiga qoyil qolmay ilojim qolmadi. Zamonaviy o'zbek nasrining imkoniyat darajasi naqadar cheklanganiga (buning ob'ektiv sabablari bor) amin bo'ldim.

Markesning murakkab uslubi va talqini mutolaa paytida sizni birmuncha qiynab qo'ysa-da bundan aslo cho'chimang. Kitob dunyoqarashingizda inqilobiy

o'zgarishlar sodir bo'lishiga zamin hozirlaydi. Bugunga qadar badiiy olamingiz "Don Kixot", "Geklberri Finn", "Tom Soyer"lar kabi sarguzashtnamo, madh-go'yilgu davrni maqtashdan nariga o'tolmagan yuki yengil kitoblardan iborat edi. 90-yillarga kelib, jamiyatda poklanish pallasi boshlandi. Siyosiy, iqtisodiy, madaniy sohada kattayu kichik xalqlarning o'z-o'zini tanishi, qadr-qimmatini anglashi jarayoni tezlashgan davrda yuqori saviyadagi asarlarga ehtiyoj yuqori bo'ladi. Deylik, taniqli qirg'iz adibi va jamoat arbobi Ch. Aytmatovning "Asrga tatigulik kun", "Qiyomat"dek umrboqiy asarlarga qiziqish kuchayadi. Ular safiga Y.Dombrovskiyning "Keraksiz narsalar fakulteti", A.Dudinsevning "Oq liboslar", A.Ribakovning "Arbat bolalari" kabi yangi yo'nalishdagi adabiyotlarini ham bemalol kiritish mumkin.

"Yolg'izlikning yuz yili" ham sevib o'qiladigan asar. U jahon adabiyoti oltin xazinasidan munosib o'rin egalladi.

Romanni o'qishda davom etamiz. "U atrofni qurshagan jamiki narsadan — qonni buzadigan ko'cha fohishalaridan, cho'chqa dumli bola tug'adigan xonaki ayollardan (*darvoqe, Buendialar so'nggi avlodi lo'lilar bashorat qilganidek, cho'chqa dumli tug'iladi. B.O.*), ilk muloqotdayoq kishini yigirma yillik urushga yo'liqtiradigan quoldan, axiyri, umidlarni puchga chiqaradigan, jinnilarcha yakunlanadigan yengil-yelpi yumushlardan va umuman, xudo yaxshilikka deb yaratganu shayton yo'ldan ozdirgan hamma narsadan qo'rqardi". Bunday faylasufona, hikmatli misralar har bir o'quvchini mushohadaga chorlaydi. Buyuk

Markes insonning badaxloq, jirkanch qiliqlari — fojiasi ildizlarini rangli bo‘yoqlarda, ustakorlarcha tasvirlaydiki, unga tasannolar aytasiz.

Markes badiiy olami xususida biz yana uzoq gapirishimiz mumkin. Bu durdona asarni o‘qib chiqsangiz bir dunyo zavqu shavq, bahra olasiz, adabiyotning qudratiga ishonasiz. Ha, yozuvchi kuchini ba’zi maddohlarga o‘xshab “o‘tin yorishga sarflamagan”, balki haqiqiy san‘at asarini yaratgan! U sizni chuqur o‘yga toldiradi, dunyoga yangicha nazar bilan qarashga majbur qiladi. Zero, romandagi Buendialar xonadoni taqdiri aslida insoniyatning yuz yillik tarixidir.

1990-yil, 27-aprel

ARMONNING QO‘SHIG‘I

Oh, do‘sting shoir bo‘lsa, qandoq yaxshi bo‘lar-kan. Shunda sen shodlik va quvonch, g‘azab va nafrat orasida tentirab yuraverar ekansan. Tuyg‘ularingni ham tarbiyalab boraverasan. “Sim-simey, sim-sim. Mabodo aldasam qo‘llarim sinsin” deya nido qiladi u Bunday go‘zal she‘rlarni o‘qiganingda ruhing yayraydi, o‘y-tashvishlardan bir oz xoli bo‘lasan. Mayli-da.

She‘riyat nima o‘zi? Nahotki u shu qadar shukuhli va sururli, deb hayron qolaman. Armonning /shoir do‘stim taxallusi/ ehtirosli olami menga yoqadi. Mana, birgina she‘rini tinglang:

Bu qanday zalolat, o‘sha qullarga,

*Bu eski kishanlar yangi yo'llarda.
Yana tosh do'stini bilmas qo'llarda.
Ey, jahon egasi, jahon kimlarda,
Tadorik ko'r, jonim, savsanni chorla,
U kelsin biz tomon bulbuli zor-la.
Yo'lga tushaylik biz ayni nahorda,
Ortiq yasholmaymiz qora bahorda.*

Yangicha ruhda yozilgan taskin va malham beruvchi gaplar emasmi? Xo'sh, yana she'r eshitgingiz kelib qoldimi? Ajablanmang, bu ruhiy holat menda ham bot-bot sodir bo'ladi.

So'z — ulug', qudratli! Armonning qo'shiqlari ona Turkiston dardlarini xalqqa oshkor aylashga ulgurmay olam bilan vidolashgan Qodiriy, Cho'lpon bobolarimizning sirli ovozigga juda o'xshaydi.

Armonni yoshlar juda yaxshi ko'radi. Shogirdlari ham o'ttizdan oshadi. U kelajakka qo'l uzatib, o'z she'riyat dunyosini yaratishga kirishgan.

... U uyiga ishdan juda toliqib qaytdi. Bolalari eshik oldida saf tortib turishgan edi.

Armon eski to'rxaltani o'g'lining qo'liga tutqazdi. Kiyimini yechmayoq radiodan qo'shiq yangray boshladi:

*Nechun bu dardo kuchlarim chekinur,
Talvasa qoqinur, murodim o'kinur.
Qizimo, o'g'limo, dunyoda dunyosiz,
Ezildim, ezildim topmayin tomchi nur.*

Qo'shiq tugar-tugamas eshik qo'ng'irog'i jiringladi. Qarasa, qo'shnisi G'olib. Tijoratchi emasmi, holahvol so'ramay, yangi iqtisodiy taklifini aytdi.

— Kelin bilan maslahatlash. Agar ma'qul kelsa, hamkorlik qilamiz. Senga ozgina qoladi. Oilang rizqi-da do'stim. Tanishlaring ko'p, vaqtni boy berma, — dediyu, chiqib ketdi.

Armon o'yg'a toldi. Nima qilsa ekan-a? She'rga tashna qalblarga u nima deydi? Bolalariga nima desin? Ustozlarigachi?

«HALI XOMSIZLAR»

Armon do'stim! Ruhiyating qalay, eson-omon yuribsanmi? Samarqandda hayot tarzi qanday kechmoqda?

Kuni kecha viloyatdan kelgan jurnalist do'stimizning noo'rin tanqididan jahling chiqib, meni himoya etganingdan xijolatdaman. Sezishimcha, stereotipi buzish, yangicha fikrlash hammaga ham yoqavermaydi. «Hali yoshsizlar, xomsizlar. O'n yildan keyin gaplashamiz», degan kinoyalarda ko'payib ketdi-da. Keskin to'g'ri gaplaring, ishonarli dalillarning bilan sen ularni qayirib tashlading, qoyilman.

Ellikvoylar negadir kichiklarga past nazar bilan qaraydilar. Qiziqqon, chapani yoshlar birikmaydi, yoshi «ulug'»lar esa oson birlashib, o'z hukmini o'tkazadi.

Iloj qancha? Orzular yo'lidagi parvozlardan so'ng yerga pastlab uchishing lozim. Jamoada akalarning tanbehlarini jimgina eshitishga majbursan. Oldin she'riyat turadi deysanmi? Yo'q, yanglishasan, avval o'zaro munosabatlar, keyin ijodga navbat. Maydachuydalarga hushim yo'q dedingmi? Unda hayotiy

tajribamdan oz-oz yuqtirib turaman. Menimcha, bu — shaxsiy hayotingda katta foyda bersa ajab emas. Shunda hurmating oshadi, hatto xizmat pog'onasi pillapoyasiga ko'tarilishing osonlashadi.

Armon do'stim! Sen jamoadagi «aka»larning mayda-chuyda gaplariga, beo'rin savollari-yu, ruhiy qiynoqlariga bardosh berishingga to'g'ri keladi. Ko'pincha yon berishing, «aka, siz haqsiz, fikringizga qo'shilaman» deb, uzoq yillik ish stajini hurmatlashing kerak. Nega deb yana so'raysan-a? O'zbekchilik! Kerak, vassalom!

Biz hurmatli akamiz aytganiday hali «xom» va «g'o'r» yigitlarmiz. Menimcha, bu gaplarda haqiqat borgan o'xshaydi. Xo'sh, o'zing bu haqda nima deysan? Javoblaringni kutaman.

Hurmat ila do'sting Orzu.

ILOJ QANCHA?

Ota-bobolarimiz hikoya qilishlaricha, hayotda yaxshi va yomon odamlar toifasi bo'lar ekan. Ammo hamma balo shundaki, yuz yil yashaganingda ham yaxshi kimu yomon kim — uning muomalasi, yurish-turishi, gapirish ohangidan ro'parangdagi odamning asli qandayligini bilib olish qiyin. Odatda, boy-badavlat odamning kayfi chog', yuzi quv naydi, u dadil, dangal gapiradi, imillab javob bersang, jerkib tashlaydi. O'rtaholning yuzi tashvishnok, asabi tarang, o'zi parishonxotir, aftodahol bo'ladi...

Odamning qiyofasiga qarab uning yaxshi-yomonligi, mard yo nomardligi, zaif yoki kuchliligini aniqlash

haqida eski kitoblarda turli rivoyatlar ko'chib yuradi. Ulardan biri ushbu. Ko'p asrlar muqaddam bir avliyosifat kishi yashagan ekan. Bir kuni unga: «Pirim, bir ma'arakada falon kishi sizni ko'klarga ko'tarib maqtadi», deb xabar yetkazishibdi. Pir suhbatdoshiga shunday javob qilibdi: «Uning o'zi kim ediki, meni bu qadar maqtaydi? Agar so'zimga qarab bilsa, qattiq yanglishur, chunki so'z va tovush, og'iz va lab bor-yo'g'i alomatlaridir. Ishimga qarab bilsa, ish degani ham ikkilamchi va o'tkinchidir. Bordi-yu mohiyatimga yetgan, asliyatimni anglagan bo'lsa, iqormanki, meni maqtay va o'sha maqtovi mening so'zimga yo'lishimga emas, balki o'zimga taalluqlidir».

Bu gaplarda hikmat bisyor. Insonni tanish boshqayu, uni bilish boshqa narsadir. Men ëru do'stlarim, tanishlarim bilan turli bahona-yu sabablar tufayli bot-bot uchrashib turaman. Bu — hayot talabi. Achchiq va shirin suhbatlar quramiz. Shunda yaqin kishilarimning tashqi go'zalligi emas, ichki olamini bilishda g'aflatda qolaman. Tanishlarim ham meni bilishmaydi. Biz tashqi qiëfaga qarab aldanib yuraveramiz. Ichki olamning bahosi va qadri tushib ketgandan keyin ko'rgilikka chidaymiz-da. Iloj qancha?!

OLIMBEK

Yoshi o'n beshdan oshgan Olimbekni buvisi savolga tutdi.

— Ota-bobolaring, avlodning haqida gapirib bera olasanmi?

— Yo‘q, yaxshi bilmayman.

Biz umid ko‘zimizni tikkan tili burro, xushbichim bolakayning javoblarini eshitib, tarvuzimiz qo‘ltig‘imizdan tushib ketdi. Undan o‘zgacha javobni kutgan edik-da.

To‘qqizinchi sinf tolibi Olimbek o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurtning tarixi, buyuk ajdodlari — hazrat Navoiy, Imom Buxoriy, Amir Temur, Boburshoh haqida tasavvurga ega emas ekan.

Ammo bulardan qat‘i nazar, Olimbek birovga gap bermaydi, kibrlanib yuradi, davralarda maqtanadi. Ish buyursangiz, og‘izda bajaradi. Shunday bo‘lsa-da, tog‘ajiyani, aka-uka, qo‘ni-qo‘shnisi uni alqaydi: “Olimbek o‘sadigan bola”. Biroq unga tanbeh bersangiz, «demokratiya, bu mening fikrim» deydi. Goho u odobli, mo‘min qobil, to‘g‘riso‘z bo‘lsa, gohida betgachopar, dangasaga aylanadi.

Shirintoy qo‘shni bola ulg‘ayganda sirli va murakkab odamga aylanasmikan, degan o‘y menga tinchlik bermaydi. Yo‘lingni, baxtingni bersin, Olimbek.

IKKINCHI ODAM

Men bu tinimsiz ichki kurashlardan hali-beri qutulolmayman, chog‘i, tunu kun u menga azob beradi, qiynaydi.

— Men birinchi odamni, — deydi tanam, — ahli jamoa, el-ulus taniydi. Kuniga o‘n martalab uchrashib muomala qilamiz. Izzatdaman

— Yo‘q, qo‘shilmayman, endi birinchi odam bo‘lolmaysan, — deydi ruhim. — Sen — aldoqchisan, hatto xudbinsan, ma‘naviy qashshoqsan. Tiling boshqayu diling boshqaligini odamlar biladi.

— Xo'sh ayt-chi, bu gapingni kimga uqtirasan? Senga ishonishmaydi. Kaminani mahalla-ko'y, ishxona, shaharda hamma yaxshi taniydi. Men yuqori lavozimdagi rahbarman, axir obro'yim...

— Faqat o'zing, hamtovoqlaring ko'zi o'ngida purviqorsan, xolos. Shaxsan men uchun obro'ying yo'q. Sening ikkiyuzlamachi, xushomadgo'y va kalondimog'ligingni yaxshi bilaman. Bu — kimlargadir xush yoqadi balkim. Lavozimdan tushgin, yuzingga kamchiligingni darhol solishadi. Ayab ham o'tirishmaydi. Tashqi qiyofangga ko'p ishonib qolmagin. Ertangi sharmandalikdan Ollohning o'zi asrasin!..

Bahs oxiriga yetgan edi. Ruh — g'olib, tana — mag'lub bo'ldi. U uyat pardasiga berkindi. «Iloyim, insof bersin senga, yolg'onchi qiyofali», dedim ko'zguga qarab.

Ikkinchi odam xomush tortdi. Uyaldi. Ajabo?!

YON DAFTARIDAGI BITIKLAR

Bu voqea bo'lib o'tganiga o'n yildan oshdi. O'tgan davr ichida odamlarning ruhiyati va yashash tarzida ajabtovur o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ammo men eshitgan voqea bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas. Mana, hikoyani o'qib ko'ring va o'zingiz xulosa chiqaring:

— Bir kuni raykom kotiblarini Toshkentga chaqirib qolishdi, — deya hikoyasini boshladi suhbatdoshim. — Markazqo'm kotibi yuz ellik kishini kutib olib, odat bo'yicha, oshkora suhbat qurdi. Ism-sharifimga ko'zi tushgach:

— Yurtlar tinchmi? — deb so‘radi mendan.

— Tinch, yaxshi, — javob berdim men.

«Birinchi» - har bir familiyani o‘qigach, rahbarning qiyofasiga sinchkov razm solardi. Kotiblarning aksari yaqinda saylangan o‘rta yoshlardagi kishilar edi. Ammo rahbarlarning ham turli toifasi bo‘lar ekan-da.

Chamasi o‘ttiz besh yoshlarga kirgan, barvasta gavdali, kelishgan yigit bilan tanishayotganida, beixtiyor shunday savollar bo‘ldi.

— Tumaningizda qancha aholi yashaydi?

— Bir yuz ellik ming.

— O‘tgan yili tumanda qancha kishi vafot etganini bilasizmi?

— O‘lganlar ... qiziq, hisoblab ko‘rmagan ekanman.

— Oxirgi paytda tumandagi kimlarning ta'ziasiga bordingiz?

Yigit so‘nggi savoldan keyin o‘zini yo‘qotib qo‘ydi.

— Ancha bo‘ldi... Vaqt masalasi chatoq.

— Vafot etgan odamlar ta'ziasiga borish uchun doimo vaqt topish darkor, ukajon. O‘ttiz besh yoshingizda sizga — tuman rahbarligini ishonib topshirishibdi. Odamlarning holidan ham xabar olish kerak-da. Mana shuning uchun ham zahmatkash xalqimiz bizga ishonchsizlik bilan qaramoqda.

Rahbar yigit kutilmagan bu tanbehdan uyalib ko‘zini olib qochdi.

Navbat o‘rta qatorda o‘tirgan yoshi o‘tinqiragan kishiga yetib keldi.

— Ayting-chi, beva-bechoralar holidan xabar olib turasizmi? Kimga amaliy yordam uyushtirdingiz?

Baland bo'yli, sochlariga oq oralagan rahbar kutilmagan bu savoldan gangib qoldi.

— Men... avval iloji boricha... — deya ming'irladi u.

— Tushunarli. O'tiring!

Birinchi keksaroq bo'lsa-da o'ziga bino qo'ygan kishining qo'lini mahkam qisarkan, bexosdan undan so'radi:

— Yuzingiz tanishga o'xshaydi. Sizni qayerdadir ko'rganman. Negadir eslolmayapman.

Qisqacha tanishuv marosimi tugagach «birinchi» dedi:

— Sizlarni eski vaqtdagiday byuroga kirgizmay, shu zalning o'zida tasdiqlayman. Mas'ul lavozimga saylanganingiz munosabati bilan hammangizni chin yurakdan tabriklayman. Mehnatkash, bag'ri keng, samimiy xalqimizga qo'lingizdan kelgan yordamingizni ayamang. Biroq ko'pni ko'rgan rahbar sifatida Sizlarga ikki maslahatni aytmoqchiman:

— Birinchi maslahatim: shuni bilingki, narvonning eng tepasiga chiqishning o'zi bo'lmaydi. Mabodo amallab o'sha qo'lyetmas nuqtaga ko'tarilgan ekansiz, yerga — odamlar turgan zaminga ham gohida boqib turinglar. Qani, chamalab ko'ring-chi, yerga tushgan mahalingiz o'ringiz qayerda bo'ladi? Xalq sizga rag'bat ko'rsatib, joy berarmikan?

Ikkinchi maslahatim: vafot etgan kishilarning dafn marosimida ishtirok eting, ta'ziasida tik turing. Yetim-yesirlar, nogironlar, bemorlar holidan doimo xabardor bo'ling. O'shanda tumanda yaxshi obro'-e'tiborga musharraf bo'lasiz. Bu do'stona masla-

hatlarimni o'zingiz qo'l ostingizda ishlaydigan rahbarlarga ham yetkazib qo'ysangiz.

Bu suhbatni hikoya qilib bergan raykom kotibi, keyinroq Nurota tuman hokimi lavozimida halol xizmat qilgan Zoyirjon Nuriddinov 1995-yilda hayotdan ko'z yumdilar. Joylari jannatda bo'lsin — bu odam o'ta xoksor, bilimdon, oqibatli, xalqparvar edilar.

— «Birinchi»ning tuman rahbariga bergan saboqlari chindan ham ibratomuz edi, — dedi Zoyirjon Nuriddinov. — Keyin bilsak, o'sha keksaroq kishi «birinchi» bilan yigirma-yigirma besh yillar muqaddam uchrashgan ekan. Toshkentdan taftishchilar kelib, xo'jalikni qattiq tekshirgan, — deya eslabdi u. — Guruh boshlig'i yaqinda bizni qabul qilgan «birinchi», men xo'jalik direktori edim. Kamchiliklar yetarli edi. Ammo xolis va haqqoniy tekshirishdi. Oxirida «falonchi falonchiyev lavozimiga munosib emas» deb yozib jo'nab ketishdi. Men, albatta raykom kotibini darhol qo'lga oldim. U tavba-tazarruga ko'ndi va hayfsan bilan meni siyladi. Lekin men oradan shuncha yil o'tgach «birinchi» tanib qoladilar deb hech o'ylamagan edim».

Zoyirjon aka hikoyasi cho'zilib ketganidan xijolat tortgan bo'ldi. U yelkamga qo'lini qo'yib dedi:

— Oradan salkam bir yil o'tgach, o'sha tanishim keksa raykom kotibini tasodifan uchratib qoldim. Holahvol so'ragach, ish faoliyatini so'radim.

— Chakki emas, — javob berdi u. — Markaz-qo'mdan tumanga qaytgach, uzoq o'yladim. Vijdonim qiynaldi. Ayb o'zimda edi. O'shanda raykom kotibini

avrab-aldab o'z lavozimimda qolgandim. Ammo ayb ish qilgan odam jazodan qutulolmas ekan. Toshkentga majlisga tez-tez chaqirib turishadi. Nima deb o'zimni oqlayman... Xullas, ishdan ketishga qaror qildim. Bir xo'jalikning rahbarligini oldim. Bunga kuchim ham, bilimim, tajribam ham yetardi. Endi ko'nglim xotirjam. «Birinchi» bilan o'rtamizda o'tgan xijolatpazlikdan qutuldim».

Aziz kitobxon! Bu hayotiy hikoyani keltirib o'tishdan maqsad rahbarlik ancha mas'uliyat talab, ornomus ishi ekanligini eslatish. Buni anglagan, his qilgan odamning sadag'asi ketsang arziydi. Ishbilarmon, fidoyi, halol rahbar xalq olqishini va duosini oladi. Uning o'tkazgan amaliy tadbirlarini, qurgan binolari-yu xolisona yaxshiliklarini uzoq eslab yuradilar. Yomon rahbar esa baribir xalqning qarg'ishiga uchraydi. Uni kechirmaydilar va jazolaydilar. Bilingki, jazodan hech kim hali qutula olgan emas.

VA'DABOZLIK

Va'da –qarz, omonatdir, unga xiyonat qilmang.

Xadisdan

Odamzod puch va'dalar quli. Umr bo'yi u va'da berib keladi, ammo hammavaqt bajarmaydi. Bilsangiz, azizim, jamiki ko'rguliklar, shodlik va xomushliklar oiladagi va'dabozlikdan boshlanadi. Farzand odatiga ko'ra, otasidan ko'ngliga siqqan nimanidir sotib

olib berishni talab qiladi. Ota o'ylamay, netmay va'da berroradi: «Bo'пти, o'g'lim, senga o'yinchoq mashina, velosiped, chiroyli kiyimlardan olib beraman!» Kunlar, oylar shu zaylda va'dabozlik iskanjasida o'tib ketaveradi.

Hademay, bola maktabga qatnay boshlaydi. Muallim o'quvchiga shunday deydi: «Men sizlarga qadimgi tariximiz, madaniyatimiz, tabiiy boyliklarimiz haqida saboqlar beraman». Bu — va'da, xolos. Aslida bolaning bilim doirasi oshmaydi. No'noq muallimdan nimani ham olish mumkin? Yillar o'taveradi, bolalar esa kattalarning va'dalariga ishonib ulg'ayaveradi.

Ko'p o'tmay, yigit bir korxonaga ishga joylashadi. Bu yerda va'dabozlik avjiga minadi. Odamlar lutf-karam ila so'z beraveradilar: «Undoq qilamiz, bundoq qilamiz, besh daqiqada «yest» bo'ladi». Rahbar ishonadi. Xodim ishontiradi... Xullas, uyda, ishxonada, ko'cha-ko'yda hamma bir-biriga yolg'ondakam va'dalar berishdan aslo charchamaydi. Buning uchun qonunda jazo belgilanmagan.

Ha, va'da — insonni aldash, avrab o'ziga moyil qilish va etini osongina o'ldira borish usuliga aylanayozdi. Imoni yo'qligidan odamizod o'nlab, yuzlab, minglab marotaba va'dalarni beraveradi. Shu bois, o'limi yaqinlashgan bemorning so'niq ko'zlariga qarab ham va'dalar beriladi. «Bajaramiz, akaxon». Bir necha kundan keyin bemor olamdan ko'z yumadi. Va'dabozlik an'anasini endi uning bolalari do'ndirib ado etishga kirishadilar.

SAVOLLAR

Assalomu alaykum aziz muallimim, ustozim! Mana, ko'rishmaganimizga hademay yigirma yil to'ladi. Biz ancha uzoqlashib ketibmiz. Bir vaqtlar siz mening dono maslahatgo'yim edingiz. Esingizdami, dars chog'ida va darsdan keyin mudom sizni savolga ko'mib tashlardim. Endi o'ylasam, juda sodda, anoyi bo'lgan ekanman-da. Xotira daftarini goho varaqlab o'qishga tushganimda, farzandlarim qotib-qotib kulishadi. O'shanda biz o'qigan adabiyot, tarix darsliklari bir yoqlama, davrga moslab yozilgan, bu millatning ongi, madaniyati-yu, tafakkuri o'sishiga bir oz to'g'anoq bo'lgan ekan-da.

Ustoz, o'rni keldi, sizga o'n yil mobaynida sumkaga qishin-yozin solib yurganim - ona tili, geografiya, kimyo, adabiyot, matematika, astronomiya, jamiyatshunoslik darsliklari yuzasidan emas, balki ruhimni qiynagan va qiynayotgan ba'zi jumboqli savollarimni bermoqchiman. Hayotning achchiq-chuchugini tatigan, yetmishni qoralagan, mahallako'y oqsoqoli, taniqli bir zot sifatida Sizdan aniqroq javob olarman, degan umidim bor. Ayting-chi, hayot o'zi nadir? O'lim nadir? Ishq nadir? Shafqat nadir? Insof nadir? Umr nadir? Sabr nadir? Aldov nadir? Yolg'on nadir? Bo'hton nadir? Farosat nadir? Ishbilarmonlik nadir? Ucharlik nadir? Yaxshilik nadir? Yomonlik nadir? Haqiqat nadir?

Meni bu jumboqli savollar doimo qiynab keladi. Buyuk bobolarimizning aytib ketgan javoblarini solishtirib chiqaman. Boshim qotadi. Yoki Yassaviyning

«Devoni hikmat» dagi bashoratlari amalga oshib ulgurdimikan?! Sizdek payg'ambar yoshini bosib o'tgan, hayotda baland-pastni ko'rgan, tajribali muallimgina yuqoridagilarga javob berishga qudrati yetadi, deb o'ylayman.

Esingizdami, Navro'z bayramida uchrashganimizda «Nega hayotim haqida yozmaysan, bu haqda va'dang bor-ku?» degan edingiz. 70-yillardagi voqealar bilan bugungi o'y-kechinmalarni omuxta qilib ko'ngildagi-day narsa yozish vaqt talab qilarkan. Materiallarni yig'ib qo'yanman. Sizning javoblaringiz ham asqotib qoladi, deb o'ylayman.

Sizga, oilangizga uzoq umr, omonlik tilayman, salom bilan:

shogirdingiz Abdulaziz.

1989-yil, avgust

NUR FARZANDI

I

Hojiqul aka bilan kasalxonada gaplashib o'tiribmiz. Oldingi uchrashuvimizda Hojiqul aka ijodkor bo'lganim uchunmi, men bilan ko'proq qaynoq hayot, tarixiy merosimiz, qadim tariximiz, urf-odatlarimiz haqida savol-javob qilgan edilar. Baland bo'yli, qoramag'izdan kelgan, chiroyli sumbatli bu odam gapga chechan, madaniyatli, oriyatli va o'ta samimiy edi. So'lim yoz oqshomlarida Nurotada

o'tadigan to'y-bazm, yubiley kechalaridagi Hojiqul akaning so'zlarini men hanuz sog'inaman? U dildan to'lib-toshib, yurakdan shoirona so'zlardi.

Nurotada tug'ilib o'sgan ajoyib rahbarning 30-35 yillik hayoti yurtidan olislarda o'tdi. Taqdir, qismat, behisob sog'inch, ilinj kunlari edi bu. Shuning uchun u har gal ona yurtiga kelganida bepoyon yaylovlarga, diliga yaqin cho'ponlar huzuriga chiqib, yashil maysalar uzra ag'anar, purviqor tog'lar, zilol buloqlar qo'ynida uzoq-uzoq qolib ketardi.

Biz Hojiqul aka bilan mahalladosh edik. Toshkentdan Nurotaga kelganimni eshitgach, darhol yonlariga chaqirib, biror xonadonning shodiyonasiga boshlab borar edilar. Bir gal Sentob qishlog'iga birga borib kelganim esimda. O'shanda Hojiqul akaning dilkashligi va odamiyligini yaxshi bilgan butun qishloq ahli to'yxonaga yig'ilib uni bag'riga bosib alqashganida yuragim hapriqib ketgan. Suhbat-gurung to'ydan keyin yarim tungacha davom etdi. O'sha kun qishloq saodatli kunga, to'g'rirog'i bayramga aylangan edi.

Endi eslasam, Hojiqul aka bilan safarlarimiz sanoqli bo'lgan ekan. Biz Hojiqul akadan xoh ishda, xoh tashkilotchilikda, xoh odamiylikda -saboq olsak bo'lmasmidi?! Ammo biz iymandik, erindik. Bu zot 70-yillarda Navoiy viloyatida endigina ish boshlagan yuzlab rahbar kadrlarni odamiylik, donishmandlik, mehribonlik, muruvvatlilik, samimiylik ilmidan ogoh etib ketdi, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. U olim, shoir, arbob edi. Men bir ijodkor sifatida Hojiqul akaning orzu va armonlari neligini bilolmay qola-verdim.

Ammo ne baxtki, Hojiqul akaning birgina orzusi-dan xabardorman. Bu orzusini kasalxonada yotganida menga oshkor qilgan.

2

Hojiqul aka hikoyasini boshladi. Men quloq soldim. Bu safar savol-javobga hojat yo'q edi.

— Poytaxtda qolib yaxshi ish qilding. Shahar — irodani, sabrni, muhimi bor imkoniyatni imtihon qiladigan joy. 60-yillar boshida men ham respublika yoshlar tashkilotida ishlaganman. Chilonzor tumanida, Farhod bozori yaqinida turardik. Takrorlanmas, quvnoq yoshlik damlari edi. G'ayratim jo'shgan, ishlab charchamasdim. O... o'sha kuch-g'ayrat, o't-olovlik yillarim qaniydi qaytib kelsa?! Keyin taqdir taqozosi bilan Samarqandga qaytib tuman, viloyat miqyosida uzoq yillar halol xizmat qildim. Qaynoq yoshligim davlat idoralarida o'tdi. Kechayu kunduz tinim bilmay yeldim-yugurdim. Samarqandda ham, Navoiy viloyatida ham asosiy burchim — odamlarning dardiga quloq solish, malham bo'lish, og'irini yengil qilish edi. Bu xislat rahmatli otamdan menga meros qolgan. Boyagi sen eslatgan shoirona gapirish esa onaizorimdan yuqqan. Besh yasharligimda otamdan yetim qolganimda meni yuvib-tarab, tarbiyalab to'g'riso'zlikka va to'g'ri amallarga o'rgatgan onajonim iloyim yuzga kirsinlar!..

E, ukajon, gapiraman desam gap ko'p. Oxiri, meni yaxshigina «siylab qo'yishdi». Usmonxo'jayev rahbarlik davrining qaltisligi shunda ediki, katta og'alarimizga qarshi turgan iste'dodli, uddaburon

milliy kadrlar ruhan, ma'nan sindirib tashlandi. Mening ham taqdirim ortiqcha izohlarsiz ikki-uch soat ichida hal bo'ldi-qo'ydi. Navoiy viloyatining ikkinchi rahbaridek lavozimdan so'ramay-netmay chetlashtirib, keyin xabar olmay qo'yishdi. Uch yildirki, yuqoriga xatlar yozaman, lekin javob yo'q. Asablarim taranglashdi. Sog'ligimni yo'qotdim. Tunlari uxlolmay chiqaman. Nonushta mahali farzandlarim ko'ziga qarab nima deyman? «O'zingiz aybdor. O'zingiz, ha o'zingiz...» degan nashtarli so'zlar — uning kim aytganining ahamiyati yo'q — meni nuqul ezadi.

Men yuqori lavozimdan ketgach, yaqin davradoshlarim, yoru do'stlarim birpasda g'oyib bo'lishdi. Yordamim kamroq tegadi-da. Ko'cha-ko'yga chiqqanimda ro'para kelishsa, «E, aka, bormisiz, sog'indik-ku. Qani bir bag'rimga bosay», deyishadi. «O'zingiz ko'rinmaysiz?» «Ha, endi ish-tashvish, bola-chaqa deganlariday». «Aytmoqchi, o'g'lingiz ishlari yaxshi bo'lib ketdimi?», deyman. «Rahmat, aka. O'z vaqtida qo'llab yubordingiz. Birgina telefoningiz...» Hamkasbim shlyapasini boshiga qo'ndirganicha, xayrxo'shlashib jo'nab qoladi. Shoshilib turgan ekan. Mayli, ketaversin. Men asli soxta, artistnamo odamlarni /«Ishi bitguncha, eshagi loydan o'tguncha»/ emas, suhbatlari latif, samimiy, dilkash insonlarni yoqtiraman. Dadang bilan bir kun birga yursam zerikmayman. Bunday mehmonnavoz hotamtoy odam kam topiladi. Nurotaga tashrif buyurgan «nozik» odam borki, sizlarnikiga qo'nib mehmon bo'lib ketadi. Faqat ichmaganlari chatoq-da. E, bularni ham bas

qiladiganga o'xshaymiz. Do'xturlar ruxsat berishmayapti. Bo'ldi, Nurotaga butunlay ko'chib boraman. Qo'y qatig'idan ichib tursam, otdek bo'lib ketaman hali. Hanuz yodimda, har yili ayni Navro'z ayyomi arafasida O.Yoqubov, E.Vohidov, A.Suyun, G'.Hotam, H.Temir, H.Eshonqulov kabi bir guruh yozuvchi, shoirlarni chaqirib, Nur dashtu-dalalarida sayr qilardik. Axir, bu Nurota dovrug'i yoyilishiga hissa qo'shardi-da.

E, ukajon, o'ttiz-o'ttiz besh yil davlat idoralarida ishlab, ortiqcha dunyo orttirmadim. Mening orttirganim — Azamat, Bahodir, Feruza, Erkin, Hasan-Husanim. Mening quvonchim, bugungi bahorim va ertangi kunim farzandlarim. Faqat Xorazmda yashaydigan yakkayu-yolg'iz qizginamni ko'p sog'inib turaman. Na qilay, taqdirida yozilgani shu ekan... Men rahbarlik davrimda oilamdan ko'ra, boshqalarga ko'proq madad ko'rsatdim. Ular hash-pash deguncha oyoqqa turib ketishdi. Hozir biri — idora boshlig'i, biri - prokuror, biri — professor.

Ming afsuski, katta boyligim — sog'ligimni boy berib o'tiribman. «Odam ham o'ziga shunday jabr qiladimi?» deya urishib berdi kecha professor. Ko'nglim nozik emasmi, bir seskanib ketdim. Endi qat'iy qarorga keldim: kasalxonadan chiqa solib Nurotaga qaytaman. Boshqa shaharlarda ishlab yurganim yetar. Oyimni, bolalarimni, oilamni sog'indim. Nurota tog'larini, dashtu dalalarini, yaxdak toza buloqlari suvini sog'indim. Ha, hayot «o'yin» ekan, ukajon, men «o'yin» dan chiqib ketaman. Bari jonimga tegdi, toliqdim. O'sha dilga yaqin - axir, otam cho'pon o'tgan — cho'ponlar qoshiga yo'l olaman!

Ammo Hojiqul akani chorvador xalqi boshiga ko'tarishga ulgurmasi. O'sha dilkash suhbatdan keyin besh kun o'tgach, Hojiqul aka hayotdan bevaqt ko'z yumdi. O'sha kun — falakka uchishga qodir fazogirlar kuni edi. Hojiqul Xudoyqulovni Toshkentdan Nurotaga olib kelganimizda tosh qotgan yuraklar ham yumshab, yoshu qarining ko'zida halqa-halqa yoshni ko'rdim. Negaki, bu odamni hamma chin yurakdan yaxshi ko'rardi. U oddiy, to'pori, mehnatkash yurtdoshlarining qalb to'ridan o'rin olgandi.

Hojiqul Xudoyqulov qadim Nurning suyukli farzandi edi.

1994-yil, aprel

NUROTA TARIXIDAN LAVHALAR

O'lkamizning eng qadimgi shaharlaridan biri Nurota haqida ilmiy adabiyotlarda kam ma'lumot uchraydi. Aslida Nur chashmasi, Nur qal'asi («Qal'ai Iskandariy»), Shayx Abul-Hasan Nuriy, Xo'ja Ahmadi kibor maqbaralari, Xo'ja Ubaydulloh ziyoratgohi, Hazrat Ali /«Shohimardon»/, Bibi Fotima-Zuhro, Imom Hasan, Imom Husan qadamjolari, Chilustun jome masjidi navqiron Navoiy viloyatining nodir obidalarini sirasiga kiradi..

Men Nurota tarixidan eshitgan, o'qigan va bilganlarimni qog'ozga tushirdim. Keling, birgalikda bu lavhalarni o'qib chiqamiz.

Nur chashmasi atrofidagi madaniy qatlam 3500 yilni tashkil qiladi. Yirik arxeolog olim akademik Yahyo G'ulomov 50-yillar boshida o'tkazgan qazishmalari paytida G'ozg'on qishlog'i shimolidagi Pashshot manzilgohi o'rni eramizning I-II asrlarida kattagina shahar bo'lib, unda 20 mingdan ziyod aholi yashaganligini aniqlagan. Pashshotda topilgan marmar idish-tovoqlar, deraza panjaralari, bezaklar ko'p narsadan guvohlik beradi. Bunday katta shahar va madaniyat belgilari uzoq vaqt mobaynida paydo bo'lgan, albatta. Keksa otaxonlarning aytishicha, Pashshotda katta karvonlar to'xtab o'tgan, u yerda yirik bozor ham bo'lgan. Akademik Yahyo G'ulomov shahar markazidagi Nur qal'asi 20-21 km. uzunlikdagi paxsa devorlar bilan o'rab olinganligini aytadi. Bu devor «Pirosta» nomi bilan atalgan. Professor H. Muhamedov (arxeolog) yozishicha: «Pirosta» devori ilk feodalizm davrida, III asrda bino etilgan va qariyb 20 km.lik uzunlikda paxsa qilib o'rab chiqilgan. U 400 yil davomida mudofaa qalqoni bo'lib xizmat qilgan. Somoniylar davrida devor o'z ahamiyatini yo'qotgan va asta-sekin xarobaga aylana borgan. Hozir undan nishona qolmagan. «Pirosta» devori hozirgi F.Xo'jayev jamoa xo'jaligining Ko'chot qishlog'idan toki Oxunboboyev jamoa xo'jaligining Pashshot qishlog'igacha cho'zilgan. Naqllarga qaraganda, u ancha keng bo'lib, hatto ustida aravalar yura olgan. Shunday rivoyat ham borki, Ko'chotdan Pashshotgacha qator uy-joylar qurilgan bo'lib, bir uloq tomdan-tomga sakrab Pashshot qishlog'igacha borgan.

Jurnalist A.Muxtorov va arxeolog B.O'roqovlar yozganidek, Nur qasrini «Iskandariya» ham deyishgan. Chunki uni Iskandar qurdirgan. Nur qasri arkidan janubda, undan 150 metrcha uzoqlikda Oq tog' cho'qqilarining biri ustiga qurilgan qorovul minorasi «Pirosta» devori tizimidagi eng baland nuqtadir. Uni Nur shahri va butun vohaning panoramasi desa bo'ladi.

Bu qadim yurt haqida kitoblarda ko'plab ma'lumotlarga duch kelamiz. O'zSEning 1976-yilgi 8-jildida Nurota haqida shunday so'zlar yozilgan: «Buxoro va Samarqand vohalariga o'tish uchun faqat ikki darvoza bo'lgan, biri Jizzax, ikkinchisi Nurota. Shu ikkinchisidan boshqa joydan askar ham, karvon ham o'tolmagan. Shu sababli qadimgi va o'rta asrlarda Jizzax ham, Nurota ham istehkom bilan berkitilgan. Nurota qadimdan muhim strategik bandargoh va savdo yo'li edi. Nurotada keyinchalik Buxoro amirining Nurota begi turgan.

Akademik Yahyo G'ulomov esa «Nur qal'asi Buxoro va Samarqand vohalariga o'tiladigan yo'lni to'sib turgan istehkom bo'lgani uchun Buxoroga qasd qilgan dushman qo'shiniga avval Nur to'siqlik qilgan» deb yozadi. Tarixchi Juzjoniy shahar garnizonini 12 ming kishi, Juvayniy esa 20 ming jangchidan iborat, deb ko'rsatgan. («O'zSSR tarixi, 1-tom, «FAN», T., 1970-y., 429-430-b.)

Xullas, Nur qal'asida shunday kuchli garnizon bo'lganki, hatto uni shoh Iskandar Zulqarnayn ham ololmagan. Bu qal'ani dushman kuch bilan emas, makr-hiyla bilan olgan. Abdulloh ibn Mas'ud ikki yuz qirq misradan iborat «Nur haqida risola»sida

(O'zFA Sharqshunoslik institutida qo'lyozma nusxasi saqlanadi. B.O.), shunday satrlarni o'qiydiz:

*Xurush aylab Iskandari podshohi,
Boribon chiqdilar boloyi ko'hi.
Nazar aylab banogoh nur taraf ul
Ko'rar arsh birla ko'kdin nur to'kilur.*

Akademik B.Ahmedovning yozishicha, nurotalik Nur Saidbek Shohruh Mirzo tomonidan o'g'li Ulug'bekka otaliq (davlatni boshqarishda yordamchi) bo'lgan Shohmalikning o'g'li hisoblanadi. Ulug'bek va Shohruh Nur Saidbekni Nurotaga amir qilib tayinlagan edilar.

Yuqoridagi qiziqishlarni hisobga olib, olimlar Nurotaga arxeologik ekspeditsiyalar uyushtirishgan. Akademik V.A.Nilson 1963-yilda, akademik Y.G'ulomov 1968-yilda, arxeolog D.M.Rostovsev 1974-yilda qazish ishlarini olib borishgan. Dastlabki qazishmalar yakunida Nur qal'asining ostki madaniy qatlami eramizdan oldingi asrlarda bino bo'lganligini aytishdi. 1974-yilgi qazish ishlari paytida eramizning I-II asrlariga oid arxeologik ashyolar topilgan. Qal'aning asl qismi IV-VII asrlarda qayta tiklangan. VIII asrda esa arablar buzib tashlashgan. Somoniylar davrida u tiklangan, XVII asrda esa yanada mustahkamlangan.

2

Nurotaning faxri bo'lgan Nur chashmasining suvi tarkibida 13 xil mikroelementlar borligi aniqlangan

/professor N.A.Kenesarin/. Bular inson organizmi uchun zarur bo'lgan shifobaxsh suvdir. U oshqozon, ichak kasalliklariga foydali, jigar va buyrak faoliyatini me'yorlashtiradi, organizmda yig'ilib qolgan tuzlarni haydab chiqaradi. Chashma ta'rifi Sharq olamiga ketgani bois bahor, yoz faslida bu qadamjodan odam keti uzilmaydi. Tiniq, yumshoq, top-toza zilol suvda rang-barang toshlar, baliqlar marvarid durlaridek tovlanib turadi. Qizig'i shundaki, suv harorati to'rt faslda ham 19,5 daraja iliq turaveradi. Miqdori: bir lahza mobaynida 250-270 litr sig'imida suv chiqaradi.

3

Rivoyatlarga ko'ra, qadim Nurotadagi korizlar 2 ming yil oldin qurilgan. Uning 10-15 tasi Iskandar zamonida qurilgan. Toshloq, Kalta, Qo'chot qadimgi davrlarda, qolgan Gajobod, Savrobod, Yo'ldoshobod, Sattorobod, Toshquduqlar esa aholini suv bilan ta'minlash uchun boylar tomonidan qurdirilgan. Bir so'z bilan aytganda, nurotaliklarning ota-bobo avlodlari qadimiy sug'orma (irrigatsiya) usulidan to'g'ri, unumli foydalana bilishning piri bo'lishgan.

Endi qadimiy korizlarning tuman hududi bo'yicha joylashgan o'rnini ko'rsatib o'tamiz. Nurotada - Mastak, Zulfiqor, Alpuxori (Al-Buxoriy), Korizcha, Toyloq, Miri, Narpay, Komboy (Ko'chimboy), Haydarobod, Sherobod, Kerak avliyo, Adizobod shaxti, Yaloq, Gumshib— ja'mi 14 ta.

G'ozg'onda: To'yboy, Chorquduq, Tumar, Farg'at, Korizak, Kalon, Nav, Pirak, Kashkash,

Ma'mur, Xo'jakarson, Sumbul, Sho'rak, Dushoxa, Beshak, Surx — ja'mi 20 ta.

Jarmadan Yangibinogacha: Cho'ntoq, Oqmozor, Go'rpak, Gurji o'lgan, Totli, Kalkoriz, Zulum, Oltmish to'rt, Uzun bel, O'rta koriz, Qumkoriz, Kulkoriz, Nurobod va boshqalar — ja'mi 21 ta.

Soykecharda: Hasanobod (Papanayda), Judiboy obod (Qoraqumda), Niyoz oqsoqolboy (Soykechar) - 3 ta.

Oqmachitda (Jo'sh): Mirza, Xalfa, Ermon - 3 ta.

Yangibinoda: Katta koriz, Churchimo, Yamon - 3 ta.

Qarangki, birgina Katta korizning qudug'i 360 ta bo'lgan (buni nurotalik Jo'raqul Kalonov otda dala kezib yurganida sanab chiqqan).

Yana Boymat qishlog'ida Boymat, Quvondiq, Bosh koriz, Jumhuriyat, Maston, Nurobod, Pashshot, Qo'chot, Kulollar, Ko'nchi, Janjalobod, Go'robod.

Yuqoridigilardan ko'rinib turibdiki, Nurotada uzoq asrlar mobaynida 120 dan ziyod koriz tuman ahlining obi-hayoti uchun muntazam ishlab turgan. Korizlar qudug'i oralig'i 10 m., tagidan odam bo'yi tunnel qazib suvi o'tkazilgan. Har 10 quduq oralig'i tizza bo'yi, ya'ni yarim metr bo'lib boravergan. Yer yuziga suv chiqarish uchun 200-300 ta quduq qazish va oxirida jarma qilib suvni quduqsiz oqizish zarur bo'lgan. Jarmaning chuqurligi 3 m.dan asta-sekin pasayib boradi.

Xullas, tuman ahli suv tanqisligini bildirmaslik uchun irrigatsiya yo'li korizlardan asrlar bo'yi unumli foydalanishgan. Qishda koriz suvi tiramoh yerlarni

sug'orsa, yozda dehqonchilik, ekin-tikinlarni suv bilan ta'minlagan.

4

1992-yil ma'lumotlariga qaraganda, tumanda 12137 xonadon yashagan bo'lib, aholisi 65705 (32474 erkak, 33231 ayol) kishini tashkil etgan. Jami yer maydoni 655615 ga, haydaladigan yer 19821 ga, yaylovi esa 491713 ga bo'lgan. 1992-yilda davlat xo'jaliklaridagi qo'ylar 248981 ta, qoramollar 1537 ta, sog'insigir 642 ta, otlar 539 ta bo'lgan. Aholi xo'jaligidagi qo'ylar 734 ta, qoramollar 13786 ta, sigirlar 7724 ta, otlar 277 ta bo'lgan.

5

Chashma va uning atrofidagi buloqlarning tarixiy yoshi olimlarning hisobi bo'yicha 40.000 yil, tuman yoshi esa 3500 yildir. Chashmaning balandligi dengiz sathidan 512 m., Hayotbaxsh cho'qqisi balandligi —2165 m., Ekvatorgacha masofa — 4550 km., Shimoliy qutbgacha —5439 km., Moskvagacha — 3360 km, Toshkentgacha 500 km, Samarqandgacha — 256 km, Navoiygacha — 85 km.

6

Tumanda jamoa xo'jaliklari 1930-31-yillarda tashkil qilingan. Ungacha yer, suv va boshqa boyliklar boylar qo'lida bo'lgan, keyin shirkatlar tuzilib, odamlar unga a'zo bo'lishgan.

Jamoa xo'jalik davrida korizlar suvidan to'liq foydalanish maqsadida har yili may oyida barcha xo'jalik a'zolari hasharga jalb etilar, suvning yaxshi oqishi

uchun ichidagi loy va tuproqlarni tozalash, quduq og'ziga terilgan chilliklarni olib, qulab yotgan maydonni tozalashar edi. Ayniqsa, 1941-45-yillardagi urush paytida qimmatchilik va yo'qchilik tufayli xo'jalik tomonidan katta qozonlarga yorma pishirib berilardi. Hatto shahardan yordamchilar taklif etilgan. O'sha davrda tumanda nechta xo'jalik bo'lsa, o'shancha karvonsaroylar bor edi. Bu saroylarda shu xo'jaliklardan kelganlar va ularning ot-aravalari turar, xo'jalik a'zosining mavsumiy ishi bitguncha shu yerda panoh topardi.

1957-yilda jamoa xo'jaliklar o'miga davlat xo'jaliklari tashkil etilgach, hasharlar qolib ketdi. Korizlar ham bir-biriga qo'shilib, suvi kamayib qoldi.

Nurota katta karvon yo'lida joylashgani sababli u Buxorodan keyin ikkinchi yirik savdo markazi bo'lgan. Hattoki, Hindiston, Xitoy, Eron, Afg'onistondan ham savdogarlar kelishgan. Ular bu yerga choy, guruch, gazmollar, ipak, paxta, uy-ro'zg'or, chinni buyumlarini keltirib sotib, o'zlari qorako'l teri, mol terisi, jun, charmgarlik mollari, zargarlik buyumlari, kulolchilik idishlari, marmar tosh buyumlarini hamda kashtachilik mollari sotib olib ketganlar. Bundan tashqari, Nurota tog'larida oltin, mis, qo'rg'oshin, simob, marmar konlari ishlab turgan. Eramiz boshlarida kelgan xitoyliklar bu yerlardan tillo qazib olib ketganlar (*davlat va jamoat arbobi Sh.Rashidov 1980-yilda Nurotaga kelib faollar yig'ilishini o'tkazganida ushbu faktlarni ham keltirgan edi. B.O.*) Hozir ham mavjud bo'lgan Konsoyni xalqimiz xitoyliklar qazigan dastlabki tillo koni, deb hisoblaydi.

Shayx Abul Hasan Nuriy IX asrda Nurda yashagan yirik diniy arbobdir. Islom ta'limotini targ'ib qilgan bu mukarram zotning dahmasi Nur chashmasi sohilidadir.

Bu zot haqida Hajviriy «Kashf al-mahjub» (X asr) asarida, u: so'fiylikning «Nuriy» bosqichiga asos solgan, deydi. Jomiyning «Nafaxot ul-uns min hazarot ul-quds» (Pok zotlar tarafidan esgan do'stlik shabada-lari), Attorning «Tazkirat ul-avliyo» tazkiralarda ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. So'nggi asarda yozilishicha, shayx «Amir al-qulub» deb ulug'langan va shayx Siriy Saqatiyning shogirdi bo'lgan Ahmad Havafiy bilan maroqli suhbatlar qurgan. U tasavvuf ilmini faqirlarga o'rgatgan va shogirdlar yetishtirgan. 907-yili vafot etgan.

Abu Hasan Nuriy somoniylar davrida yashagan buyuk allomalarimizdan biri sanaladi.

IX asrda shaharda Chilustun jome' masjidida qurilgan. Bu vaqtda Nur shahristoni va uning atrofida madaniyati shakllangan aholi istiqomat qilgan, ular ilm-fan, hunarmandchilik, dehqonchilik, korizchilik bilan shug'ullangan.

Mozor qishlog'i Nurotadan 4 km. teparoqda bo'lib, u yerda Sayyid avlodlari yashaydi. Hozir Sayyid Eshon

nomi berilgan. Qishloq obod va fayzli go'shaga aylangan. Bunda tabarruk zot hoji Istamjon Sayyidjon o'g'lining — joylari jannatda bo'lsin, — nurli zot edilar — behad xizmatlarini eslamay iloj yo'q. Shul bois, bu ma'rifatli xonadondan odamlarning qadami uzilmaydi.

Sayyid Eshon qishlog'ida Xo'ja Ahmad kibor qabri bor. Bu zot Xoja Ahmad Yassaviy ta'limotini Nurota hududida targ'ib qilganlardan bo'lib, o'zi Yassaviyning shogirdlaridan... U islom olamida mashhur «o'n bir Ahmad»ning biridir. Aytishlaricha, Yassaviy maqbarasi yonidagi hujrada etti xil ma'dandan quyilgan 2 tonnalik qozonga suyab qo'yilgan o'n bitta tug'lar «O'n bir Ahmad tug'lari» deb atalgan ekan. «Devoni hikmat» nodir nusxalaridan birida doirasimon shakl va o'rtada muhrni eslatuvchi naqsh o'rin olgan. Etnograf olim Hayot Ismoilovning o'qishicha, doira o'n bir bo'lakka bo'lingan va har bir naqsh ichida bitta shayx nomi bitilgan. Bular — shayx Ahmad Mursal, shayx Ahmad Xayrun, shayx Ahmad Arqam, shayx Ahmad Xazraviya, shayx Ahmad Raviya, shayx Ahmad Muxtor, shayx Ahmad Kibor, shayx Ahmad Hami, shayx Ahmad Zamji, shayx Ahmad Sag'ariya. Ichkaridagi kichik doirada shayx Ahmad Yassaviy nomi yozilib, sanasi 1212-hijriy yili yozilgan ekan. Nurotadagi Xo'ja Ahmad kibor qabr toshining yuqorisida ham gulsimon naqsh chizilgan, u 10 ta teng naqsh va o'rtada Yassaviy nomi bilan to'ldirilgan. O'nta bo'lakda 10 ta shayx nomlari bitilgan. Nurotalik ma'rifatli inson, hoji Ahmad Hazratov unda shunday so'zlar yozilganini o'qidi: shayx Ahmad Mursal, shayx Ahmad Kibor, shayx Ahmad Qarab, shayx Ahmad Arqomast, shayx

Ahmad Hambal, shayx Ahmad Jurjoniyy, shayx Ahmad Sarboz, shayx Ahmad Hazraviya, shayx Ahmad Moziy, shayx Ahmad Davanda.

Bu fikrlarning naqadar hayotiy ekanligini o'rganish va aniqlashni olimlar hukmiga havola etamiz.

10

Qutayba 709-yilda Buxoroni zabt etganda arablar Buxoro shahristonining bir qismiga, ya'ni Attoron darvozasidan toki Nur darvozasigacha bo'lgan joylarga arab qabilalarining «rabi'a» va «mudar» urug'larini o'rnatirgan.

11

XX asr boshida Nurota shahri ahli ma'rifiy va diniy ilmda mustahkam mavqeni egallagan. Kichik shaharda 32 ta masjid ishlagani ham ko'p narsadan dalolat beradi. Ulardan Domala mahalla, Kaltako'cha, Turko, Sodiq, Qulmamat, Mazori chilla, Bo'duq mahalla masjidlari O'rta guzar /guzari miyona/ga qaragan. Shuningdek, Arab guzarda 6 masjid: Saydato, Chuqurak, Machiti safed, Shakarak, Bargso'z, Hovuzak; Mirishkor mahallasida 5 masjid: Duoba, Poston, Luchchak, Osiyoi baland, Mirishkor; Rabotto'lg'on mahallasida 8 masjid: Yetimcha, Dasht machit, Xo'ja, Avezxo'ja, Sariosiyo, Rabotto'lg'on, Lo'la masjidlari mudom ishlab turgan.

Haqiqatan ham Nurotada 1917-yilga qadar islomiy madaniyat yuqori bo'lgan. Buni birgina misolda ham ko'rsa bo'ladi. 1920-yillarda Domalla mahallasida

yashagan ulamo, diniy domlalarni bir sanab o'taylik, bular: mulla Asatulla hoji, eshon Muftullo hoji, Domulla hoji, hoji Cho'li, hoji Nosir, so'fi Rahmonqul, mullo Abdushaxs, mullo Rayimqul, mullo Mamarajab, mullo Rahmonberdi, mullo Shokir, mullo Suponqul, mullo Eshonqul, mullo Yorqul, mullo Bobo, qori Haqberdi, qori Mahmud, qori Sodiq, mirzo Karomatullo, boboi Hatip va boshqalar.

Demakki, boshqa mahallalarda ham shunday ma'rifatli zotlar ko'p bo'lgan.

12

Aniq ma'lumotlarga qaraganda, Nurota shahar qabristonida 154 xilxona mavjud. Ular o'zbek, arab, qozoq, turk qavmlaridir. Biz shoyad foydasi tegsa, degan niyatda bu qavmlarni birma-bir sanab o'tamiz:

arabho, dukchiho, qaroqchi, halolho, shayxmulloho, tagal, qoraturkman, qorakanchoq, cho'pkadi, ustoho, jaydako, go'rkovho, xo'jadurdoni, odamshavandaho, xo'jaijahoni, saidho, so'limmo, arabxo'jaho, kallar, avezxo'jaho, qirmigiyom, baxmaliyon, Yamonxo'ja, ajinagiyon, sarhangifarhang, ejiho, mirishiygiyohon, Saidlar, Umarato, lo'lshilar, salombermas, xonaqo, devbandlar, tatarlar, g'ulomon, shirini, qullar, sag'irako, maxsumo, sarsilar, ko'zgaron, xo'jalar, ko'ragiyon, oxunjonboy, sozonboy, halvochiho, o'dayyo, quruqo, qaqurho, qassobho, oxunlar, eshonlar, jomajallobo, piskako, baxilo, so'fiali, qodir luchchak, kaltago, mudarrisho, bahrini tojdor, esh-

boy giyon, qimorbozho, ulug'ho, gulpakiho, chukayho, qirqqonho, Abubakr, Siddiqiy, Hojigiyon, Qushbekho, kochilar, govsvorho, govialoxo'ro, mashrablar, charmso'zho, qarovulo, qoziluchchak, qiltoko, bokilar, qizilboshlar, birjoylar, otko'chimlar, kamgaplar, mirishkor, bahrinho, turkmanli, karraklar, namatzano, bekboylar, o'zbeklar, hamroboycha, qoraxoniy, sarimozori, g'aybilloboy, xarxo'r-lar, qassobiho, novvoyho, qorliklar, xatiplar, arg'inlar, takiyaho, qaroi cho'liqchi, bugajil turkman, ko'chimbiy, ko'ppaklar, koleganlar, balballo, ming tillo to'g'ali, turklar, usto gulyon, tokchilar, jaydoqho, burqutlar, po'kho, kongokho, cho'ltaroshho, narzigiyog, pistagiyog, tiyoqliho, kashkatup, koshkato'p, bulduruq, davkarto'p, o'rta chuqur, fayzinlar, cho'ponlar barragiho, mashkobo, ko'rpaqaychilar, kuchukro, qaquro, qalandarlar, baqqolho, barjiho va boshqalar. Ushbu kichik ma'lumot ota-bobolarining kelib chiqishi va ajdodlari tarixiga qiziqqan yoshlar uchun foydadan xoli bo'lmaydi, deb o'ylaymiz.

Qazviniyning yozishicha, Somoniylarning ruxsati bilan Saljuqning avlodlari bo'lgan turkmanlar 985-yildan boshlab Nur atrofiga kelib joylashganlar. Hozirgi kunda Chashma, Oqtepa, Chuya, Qo'shrabot, Beshmo'la, Zabota, Sarisuv, G'ozg'on qishloqlarida turkmanlarning ersori, tama urug'lari ahilinoq istiqomat qiladi.

Katta Ej qishlog'ida birovlariga o'xshamagan 6 qavm bor: shohigi, talhak, shirinak, mulloi, arbobi, tabarba kifton, Abdunazari.

Nurota elining o'ziga xos iboralari juda boy va mazmundor. Ayniqsa, tojik tili lahjasida gapiradigan aholining so'z boyligi, nutq madaniyati alohida tadqiqot mavzui bo'la oladi. Biz hikmatlarga aylangan, purma'no betakror ayrim iboralarni o'quvchilarga havola etishni lozim topdik:

1. Medoramadagi daratro saxt napo'shon.
Kirar eshigingni qattiq yopma.
2. Kallai xamro shamsher nameburad.
Egilgan boshni qilich kesmaydi.
3. Yak duxtar baroi haft pisar.
Bir qiz yetti o'g'il o'rnini bosadi.
4. Yak duxtarba chihil modar.
Bir qizga qirq tarbiyachi.
5. Gapi koron yak tanga, Gapi nodon sad tanga.
Ishbilarmon gapi bitta, nodonning gapi yuzta.
6. Kitob xoni mullo, naxoni qori meshavi.
Kitob o'qisang mullo, o'qimasang - qori bo'lasan.
7. Pul pul meyobad, bepul - dardisara.
Pul pulni topadi, bepul -bosh og'riqni.
8. Pir nest,takbir nest.
Qarisi yo'q uyning parisi yo'q.
9. Pulam dar oftob, xudam dar soya.
Pulim quyoshda, o'zim soyada.
10. Yo xar peshi bor, yo bor peshi xar.
Yo eshakni yukka, yo yukingni unga yaqin keltir.
11. Kam xur, hamesha xur.
Oz ye, hamisha ye.

12. Vay ba man darkor shud,
Gardani vay daroz shud.
*U menga kerak bo'ldiyu,
Bo'yni uning cho'zildi.*
13. Az tag mezanad fone,
Az ro'y mezanad shone.
*Senga shirin gapirib,
Tagingga suv quyadi.*
14. Xona zindon, ko'cha xandon.
Uyda zindon, ko'chada xandon.
15. Teg teyu — talab.
Berginu talab qilgin.
16. Qanoat -nisfi poshsho.
Qanoat— yarim podsholikdir
17. Nadida ba ro'z omad.
Xar peshi tano'r omad.
Ko'rmaganga kun keldi.
Eshak tandirga keldi.
18. Gushna ba sher mezanad,
Tashna ba daryoi azim.
*Och odam sherga tashlanar,
Tashna azim daryoga.*
19. Dastat ravg'ani boshad saratba mol
Qo'ling moyli bo'lsa, boshingga surt.
20. G'isht giri - g'isht memonad.
Narsa olsang - o'rni qoladi.
21. Buzam nolad, duzam nolad.
Echkim ma'rasa, o'g'ri qochadi.
22. Sara mon poshnaye xor.
Boshni qo'y, tovonni qashla.

Xalq tafakkuri mahsuli bo'lgan bunday hikmatli so'z va iboralarning kelib chiqishini o'rganish — tilshunos va adabiyotshunoslar oldida turgan navbatdagi vazifalardir.

14

Aziz o'quvchi! Endi qadim Nurota xalq qo'shiqlaridan eshitib ko'ring-a!

Kelin kelganda aytiladigan laparlar:

Omad omadat gardam,

Sarvi qomatat gardam.

Raraftori xush dori,

Az omadamat gardam.

Az rohi dur omadayet

Andesha dur mekunem

Mo bo shumo oshnagi,

Az tagi dil mekunem.

Az dar daro salom te

Qomati xush nishon te.

Tashna monam ob te

Zulfi siyota tob te...

15

Nurota tumanining qishloqlarini ketma-ketligi va joylashuviga qarab (saylov uchastkasiga suyanib) quyidagi katta-kichik guruhlarga bo'lish mumkin:

1. Sayidjon Eshon, Alpuxori /Al-Buxoriy/, Qo'nchi, Xo'jaobod, Ayagan quduq, Cho'ponobod, Adizobod qishloqlari.

2. Yangiobod va Yangibino qishlog'i.
3. Eski, Samari, Shomurod, Zulqaynar;
4. Chashma, Ajrim va Oqtepa;
5. Qizilcha va Ulus;
6. Boltashovdir va Xo'jamurod;
7. Qo'shquduq, Temirqovuq va Korizak;
8. Chuqurquduq va Qo'ziboy quduq;
9. Poyga, Cho'ponovul;
10. Katta Ej va Kichiksoy;
11. Sentob, Sop, Sulibuloq;
12. Mushkan, Chuya, Dara va Tutak;
13. Qadoq, Baroq, Nog'ora, Ko'kbuloq;
14. Sirtisuluv, Kumush, Tutli, Anna, Ko'ktepa, Tikanli, Qirovut;
15. Soykechar, Qoraqum, Papanay, Jilontamg'ali;
16. Oqqula, Haydarobod;
17. Jarma, Bo'rliboy, 64-koriz;
18. Sovuqbuloq, Suvliq, Qovushli, Modovod, Ocha qishloqlari.

16

Nurota shahri mahallalari nomi ham ancha qadimiy bo'lib, ular quyidagilardir:

Shakarak, Hovuzak, Chuqurak, Domala, Sodiq, Qulmahmat, Turko, Chillamozor, Bo'diq, Saydato, Eshoni Sudur, Osiyoi baland, Mirishkor, Ravoto'l-g'on, Arab guzar va boshqalar.

17

Yirik boy Tursunxo'ja Eshonxo'jayev — Sudur bobo haqida el-yurt orasida iliq gaplar yuradi. U Nurota

begi Rahmatullabek davrida yashagan. Sudur bobo asosan tuz sotib boyigan ekan. So'ng bo'z, olacha, qalamilarni Buxoroga eltib sotgan. Keyinroq chorva bilan shug'ullanib, yer-suvlar sotib olgan, ko'plab tegirmonlar qurgan, g'alla ekan, qovun-tarvuz, poliz ekinlarini ko'paytirgan. Hovlisida gullar o'stirgan, tovus, kaklik, sa'va, bulbul kabi qushlarni parvarish qilgan. Hozirgi kun tadbirkorlari o'tmish-doshlarining ibratli an'anasini davom ettirayotgan bo'lsa, ajab emas.

18

Nurotaning elda mashhur farzandlari nomini faxr ila sanab o'tamiz: Ergash Jumanbulbul o'g'li, Rahmatulla Yusuf o'g'li, Ergash Asaboyev, Fayzi Toshpo'latov, Jumanazar Hamroyev, Hojiqul Xudoyqulov, Zoyirjon Nuriddinov, Mubinjon Baratov, Nasriddin Rahmonov, Qodir Xalilov, Norqul Fayzullayev, Rustam Muhammadiyev, Bahriddin Naimov, Shodi Fozilov. Tarixiy lavhalarimiz oxirida tumanga rahbarlik qilgan va xalq farovonligiga benazir hissa qo'shgan ba'zi rahbarlar nomini alohida tilga olib o'tmoqchimiz. Bular: Sangimo Hamroyeva, Xo'jam Qozoqov, Fayzi Toshnazarov, Munavvara Qurbonova, Azim Tillayev, Oppojon Qodirov, Hojiqul Xudoyqulov, Zoyirjon Nuriddinov... Ayni paytda tumanga viloyatda qishloq xo'jaligi yirik mutaxassisi sifatida tanilgan, ishbilarmon, izlanuvchan O'ktam Hakimov rahbarlik qilmoqda. O'z navbatida, turli yillarda xo'jaliklarni, korxonalarni boshqargan va yaxshi mehnat ko'rsatkichlariga erishgan Qulman Abrayev, Obloqul Xo'jaqulov,

Abduhakim Mamarasulov, Qurdoş Jonuzoqov, Normamat Hakimov, Hamdam Boboqandov, Arab Rustamov, Jabbor Normatov, Zayniddin Omonov, Fazliddin Ahmedovlar nomini tuman ahli ardoqlaydi. Turli sohalarga yetakchilik qilgan va barakali ishlayotgan Bahriddin Rustamov, Ochil Navro'zov, Jo'raqul Safarov, Amriddin Muhiddinov haqida ko'plab iliq fikrlarni bildirish joiz...

Nurotaning bosib o'tgan so'qmoqli, mashaqqatli va oydin yo'lini tasvirlash, boshqalarga o'xshamagan mard, chapani, ammo dinu diyonatli odamlarining ruhiy olami ijtimoiy turmushidagi o'zgarishu yangilanishlarni qog'ozga tushirish baxti Azim Suyun, Hamdam Eshonqulov, Nomoz Sa'dullayev, Ahmad Otaboyev, Mahmud Mardiyev — bu halol, sadoqatli, pok vijdonli jurnalist do'stimiz 2002-yilning avgustida bevaqt olamdan ko'z yumdi, Alloh rahmat qilsin, Rahim Qodirov, Sharbat Muxtorova, Safar Umrzoqov, Salima Qilicheva, Suyun Mustafoyev, Farhod Arziyev kabi iste'dodli shoir va yozuvchilarga nasib etgusidir.

Aziz yoshlar!

Biz Sizga o'lkamizning betakror qadamjolaridan biri bo'lgan go'zal Nurotaning tarixi va uning oliyhimmat, bag'ridaryo odamlari haqidagi lavhalarimizni bayon qildik. Albatta, bular yurt tarixini eritishda ilk qadam, dastlabki urinishlardir. Umidvormizki, kelgusi avlodlar uning kam-ko'stini to'ldirid, boyitishadi va yangi tadqiqotlar yaratishadi.

Nurotaga marhamat qiling, azizlar, qadamlaringizga hasanot!

1998-yil 14-mart

MUNDARIJA

Hikoyalar	
Boburning bolaligi	3
Arosat	12
Armon	22
Esselar	
Navoiyga qaytish	28
Sohibqiron saboqlari	32
Jamiyat mafkurasiz yashay olmaydi	39
Notiqlik-san'at	44
Kunchiqar yurt mo'jizasi	48
Xitoy adabiyoti va tarixiga qiziqaman	57
«Urjuza yoki 1326 bayt tibbiy o'git»	61
Bir xonadon taqdiri	64
Armonning qo'shig'i	67
«Hali xomsizlar»	69
Iloj qancha?	70
Olimbek	71
Ikkinchi odam	72
Yon daftaridagi bitiklar	73
Va'dabozlik	77
Savollar	79
Nur farzandi	80
Nurota tarixidan lavhalar	85

Adabiy-badiiy nashr

Baxtiyor OMON

BOBURNING BOLALIGI

(hikoyalar, esselar)

Muharrir *Ilhom Zoyir*
Rassom *Shuhrat Odilov*
Tex. muharrir *Vera Meshcheryakova*
Musahhih *Barno Ismoilova*
Kompyuterda
sahifalovchi *Artur Kan*

N/B 4112

Bosishga ruxsat etildi 2.10.2002. Bichimi 84x108 1/32. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog'i 5,88. Nashr tabog'i 5,0. Tiraji 1000. Buyurtma № 4265
Narxi shartnoma asosida.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 700129 Toshkent, Navoiy
ko'chasi, 30. Shartnoma № 20-2002.

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi 1-bosmaxonasi. 700002.
Toshkent, Sag'bon ko'chasi, 2 uy.